

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI**  
**“FAKULTETLARARO JISMONIY MADANIYAT VA SPORT”**  
**KAFEDRASI**

**7-2JM-14 guruh talabasi**

**Jalolov Bahodir G'aybulloyevich**

**Mavzu: Futbol musobaqalarini rejalashtirish va**  
**o'tkazish**

**5112000 “Jismoniy madaniyat” ixtisosligi bakalavr ilmiy darajasini**  
**olish uchun yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga  
qo'yildi “Fakultetlararo jismoniy  
madaniyat va sport” kafedrasi mudiri  
\_\_\_\_\_ A.K.Ibragimov

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018 y.

Ilmiy raxbar \_\_\_\_\_ A.F.Narzullayev

Ilmiy maslahatchi \_\_\_\_\_ O.A.Farmonov

**BUXORO - 2018**

# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Jismoniy madaniyat fakulteti

5112000 «Jismoniy madaniyat» ta'lim yo`nalishi talabasi

**Jalolov Bahodir G'aybulloyevich**

**O`zlashtirishi haqida**

**MA'LUMOTNOMA**

Talaba Jalolov Bahodir G'aybulloyevich Buxoro Davlat Universitetida 2014-2018 yillarda o`qish davomida o`quv rejasini to`liq bajardi va quyidagi o`zlashtirishga erishdi.

"A'LO" \_\_\_\_\_

"YAXSHI" \_\_\_\_\_

"QONIQARLI" \_\_\_\_\_

**Fakultet dekani:**

**B.B.Ma'murov**

**MA'QULLAYMAN**

Ilmiy rahbari: \_\_\_\_\_ A.F.Narzullayev  
 « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 y.

**TASDIQLAYMAN**

“Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport”  
 kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ A.K.Ibragimov  
 « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 y.

BuxDU Jismoniy madaniyat fakulteti bitiruvchisi Jalolov Bahodir  
 G'aybulloyevichining “Futbol musobaqalarini rejalashtirish va o'tkazish” mavzuidagi  
 malakaviy bitiruv ishi ustida olib borilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

**TOPSHIRIQLAR**

<b>T/r</b>	<b>Ishning mazmuni</b>	<b>Bajarilish muddati</b>	<b>Natija</b>
1.	Bitiruv malakaviy mavzuini kafedra va fakultet kengashida tasdiqlanib olish rejalarini rasmiylashtirish.	Sentyabr	Ijro etildi.
2.	Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy-uslubiy materiallarni o'rganish.	Sentyabr, Oktyabr, Noyabr	Ijro etildi.
3.	Ta'lim muassasalarida sakrash turlari bo'yicha to'garak mashg'ulotlari va musobaqalarni tashkil qilish	Oktyabr, Noyabr	Ijro etildi.
4.	Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni o'rganish. Adabiyotlar bilan ishlash.	Sentyabr, Yanvar	Ijro etildi.
5.	To'plangan materiallarni sistemalashtirish	Yanvar	Ijro etildi.
6.	Malakaviy bitiruv ishining 1-2 bobini tayyorlash	Fevral	Ijro etildi.
7.	Malakaviy bitiruv ishining 3-bobini tayyorlash va xulosalash	Mart	Ijro etildi.
8.	Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	Mart, Aprel	Ijro etildi.
9.	Malakaviy bitiruv ishining borishi to'g'risida kafedraga hisobot berish.	May	Ijro etildi.
10.	Ishni ilmiy rahbar taqrizi bilan kafedraga topshirish.	May	Ijro etildi.
11.	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish.	May	Ijro etildi.
12.	Dastlabki himoya jarayonida ko'rsatilgan kamchiliklarni tuzatib oxirgi himoyaga qatnashish.		

**Bitiruvchi kurs talabasi:**  
**Ilmiy rahbar:**

**B.Jalolov**  
**A.F.Narzullayev**

**Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti,  
“Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasining  
\_\_\_ son yig`lishi bayonnomasidan  
KO`CHIRMA**

« \_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 yil

Qatnashdilar: p.f.n.dotsent, B.B.Ma`murov, dotsent  
M.J.Abdullaev, katta o`qituvchilar: S.Sh.Akramov,  
O.A.Farmonov, R.S.Baymurodov, D.Ro`ziev, B.Do`stov,  
M.G`afurova, A.K.Ibragimov, N.M.G`afurov,  
o`qituvchilar: M.K.Mahmudov, J.Murodov, Ya.Fayziev,  
A.Sattorov, R.Raxmonov, A.Yuldashev

**Kun tartibi:**

**1. 2017-2018 o`quv yili uchun bitiruv malakaviy ish mayzularini tasdiqlash.**

Yig`ilishi kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri A.K.Ibragimov qisqacha hisobot berdi va yangi o`quv yili uchun mo`ljallangan malakaviy bitiruv ishlari mavzulari ro`yxati tuzilganligini, mavzularning dolzarbligini, takrorlanmaganligini kafedrada tuzilgan maxsus ishchi guruh tomonidan tekshirib chiqilganligini qayt etdi. Shundan keyin bitiruv malakaviy ishlari ro`yxati yigilish kotibi tomonidan o`qib berildi.

Bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tasdiqlash bo`yicha qo`shimcha so`zga chiquvchilar yo`q.

Ko`rilgan masala bo`yicha quyidagicha

**QAROR QILINDI:**

1. Jismoniy madaniyat fakulteti 7-2JM-14 guruh talabasi Jalolov Bahodir G`aybullayevich bitiruv malakaviy ishi yozishga ruxsat etilsin.
2. “Futbol musobaqalarini rejalashtirish va o`tkazish” bitiruv malakaviy ishi mavzusi etib tasdiqlansin.
3. O`qituvchi F.A.Narzullayev ilmiy rahbar etib tayinlansin.

**Yig`ilish raisi:**

**A.K.Ibragimov**

**Yig`ilish kotibi:**

**M.B.Ibragimov**

**Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti,  
“Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasining  
\_\_\_ son yig`lishi bayonnomasidan  
KO`CHIRMA**

« \_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018 yil

Qatnashdilar: p.f.n.dotsent, B.B.Ma`murov, dotsent  
M.J.Abdullaev, katta o`qituvchilar: S.Sh.Akramov,  
O.A.Farmonov, R.S.Baymurodov, D.Ro`ziev, B.Do`stov,  
M.G`afurova, A.K.Ibragimov, N.M.G`afurov,  
o`qituvchilar: M.K.Mahmudov, J.Murodov, Ya.Fayziev,  
A.Sattorov, R.Raxmonov, A.Yuldashev

**Kun tartibi:**

**1. 2017-2018 o`quv yili uchun mo`ljallangan bitiruv malakaviy  
ishlarning dastlabki himoyasining muhokamasi va himoyaga tavsiya etish.**

Yig`ilishda 7-2JM-14 guruh talabasi Jalolov Bahodir G`aybulloyevich o`qituvchi F.A.Narzullayev ilmiy rahbarligida bajargan “Futbol musobaqalarini rejalashtirish va o`tkazish” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishining tugallanganligi to`g`risidagi axboroti va ilmiy rahbar xulosasi tinglandi.

Qo`shimcha so`zga chiquvchilar yo`q. Ish yakunlanganligini hisobga olib,

**Kafedra yig`ilishi qaror qiladi:**

1. Jismoniy madaniyat fakulteti 7-2JM-14 guruh talabasi Jalolov Bahodir G`aybulloyevichning “Futbol musobaqalarini rejalashtirish va o`tkazish” mavzusida bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi, u sinov himoyasidan o`tdi deb hisoblansin va rasmiy himoyaga ruxsat etilsin.

2. Jalolov Bahodir G`aybulloyevichning bitiruv malakaviy ishiga ilmiy maslahatchi sifatida o`qituvchi. A.K.Ibragimov belgilansin.

**Yig`ilish raisi:**

**A.K.Ibragimov**

**Yig`ilish kotibi:**

**M.B.Ibragimov**

2018 yil “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ *ning*  
“ \_\_\_\_\_ ”

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga  
**ILMIY RAHBAR XULOSASI**

Mavzuning dolzarbligi \_\_\_\_\_

Belgilangan vazifalarning amalga oshirilganlik  
darajasi \_\_\_\_\_

Bajarilgan munosabati \_\_\_\_\_ ishga talabanning

Talabanning adabiyotlardan foydalanish va materialni mustaqil bayon eta olish  
ko‘nikmalari \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ Talabalarning  
tadqiqotchilik ko‘nikmalari \_\_\_\_\_

Talabanning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ya’ni pedagogik topshiriqlarni echa olishi,  
mustaqil qaror qabul qila olishi va h.k \_\_\_\_\_

Olingan natijalarning amaliyotga ta’lim jarayoniga qo‘llash imkoniyati hamda  
talabanning ixtisosligi bo‘yicha beriladigan kvalifikatsiyani olishga  
loyiqligi \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar imzosi:**

**Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport  
kafedrasi o‘qituvchisi  
A.F.Narzullaev**

ning

“  
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha rasmiy opponent

**TAQRIZI**

Mavzuning dolzarbligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Bajarilgan ishning unda belgilangan vazifalarga mos kelishi

\_\_\_\_\_

Materialning mantiqiy bayon etilishi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Ishga oid manbalarning o‘la va etarlicha tanqidiy tahlil etilganligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Ishning mustaqil bajarilganligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Olib borilgan tajriba ishlari samaradorligining to‘la va to‘g‘ri baholanganligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Xulosalarning to‘liq izohlanganligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Ishning amaliy ahamiyati \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Ishdagi kamchiliklar \_\_\_\_\_

Ishning talab darajasida rasmiylashtirilishiga

Izoh \_\_\_\_\_

Ishning himoyaga loyiqligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Rasmiy maslahatchi:**

**o‘qituvchi A.K Ibragimov**

**Ilmiy Kengashning  
3-aprel 20\_\_ yilgi  
7-bayonnomasi  
bilan tasdiqlangan**

Buxoro davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti 5112000 Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Jalolov Bahodir G'aybulloyevichning "Futbol musobaqalarini rejalashtirish va o'tkazish"

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishga DAKning

**XULOSASI**

Buxoro davlat universiteti DAK Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi BMIning bajarish xaqidagi 31.12.98 yil 362-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan nizomda asosan quyidagilarni aniqladi:

1. BMIning xajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (meyor: tabiiy yonalishlar-50dan, ijtimoiy yig'ilishlar-70 betdan kam bo'lmasligi kerak): talabga javob beradi-10 ball talabga kisman javob beradi-7 ball, talabdan chetga chikish holatlari mavjud-4 ball.

2. Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi: davlat dasturiga kirgan-8 ball, grant loyixasi bo'yicha-7 ball, Bux DU dasturi bo'yicha-6 ball, dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball.

3. Mavzu dolzarbligining asoslanganligi: yetarli darajada asoslangan-5 ball, yetarli darajada asoslanmagan-3 ball, noanik-2ball.

4. Maqsad va vazifalarning anik ifodalanganligi: anik-7 ball, to'lik anik emas-5 ball, anik emas-3 ball.

5. BMI bajarishda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi: to'la-7 ball, kisman-5 ball, yetarli emas-3 ball.

6. Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi: natija yangi -8 ball, ilgari olingan-6 ball, to'la ishonchli emas-3 ball.

7. BMIning xulosa qismida ishlab chikarishga tavsiya bor-6 ball, ijtimoiy soxada ko'llashga (talim, atrof-mug'ptni ximoya kilish, manaviy-mariviy...) tavsiya kilingan-5 ball, tavsiya yo'q-Z ball.

8. Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarni tanqidiy baholanganligi darajasi: anik-8 ball, to'la anik emas-6 ball, tanqidiy baholanmagan-4 ball.

9. Ishning ilmiylik xarakteri: ilmiy tadkikodlar asosida-8 ball, aralash shaklidan-5 ball, referativ xarakterdan-3 ball.

10. Bitiruvchining maruzasiga baho: alo-10 ball, yaxshi-7 ball, qoniqarli-6 ball.

12. Berilgan savollarga javoblari: to'lik-8 ball, o'rta-6 ball, qoniqarli 4 ball.

13. BMI ni tashqi takrizchi tomonidan baholanishi: alo-7 ball, yahshi-6 ball, qoniqarli-5 ball.

14. BMI ga ko'yilgan yakuniy ball \_\_\_\_\_ Bahosi \_\_\_\_\_

Eslatma: Har bir bal bo'yicha aniklangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi \_\_\_\_\_

F.I.Sh.imzo

A'zolari \_\_\_\_\_

F.I.Sh.imzo

\_\_\_\_\_  
F.I.Sh.imzo

Sana « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018 y



DAVLAT ATTESTASIYA KOMISSIYASIGA  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**Jismoniy madaniyat fakulteti**

Talaba Jalolov Bahodir G'aybulloyevichning "Futbol musobaqalarini rejalashtirish va o'tkazish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi rasmiy himoyaga ruxsat etilsin.

Himoyaga bitiruvchining o'zlashtirishi to'g'risida ma'lumotnoma, bitiruv malakaviy ish haqida rahbar hamda kafedra yig'ilishi xulosasi, taqriz va talabaga tavsifnoma ilova qilinadi.

**Fakultet dekani:**

**B.B.Ma'murov**

2018 yil \_\_\_\_\_ iyun.

## **REJA**

**Kirish**

**MATN**

.....  
.....

**Matn keyin oxirirda mundarija**

.....  
....

## **Mundarija**

<b>KIRISH.....</b>	<b>2-4</b>
<b>I-BOB FUTBOL MUSOBAQALARINI REJALASHTIRISH VA O'TKAZISH.....</b>	<b>5-41</b>
<b>1.1 Fudbol musobaqalarini rejalashtirish.....</b>	<b>5-28</b>
<b>1.2 Futbol musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish.....</b>	<b>29-36</b>
<b>II-BOB. FUTBOL MUSOBAQALARIGA TAYYORGARLIK.....</b>	<b>37-61</b>
<b>2.1 Futbol musobaqalarining umumiy qoidalari.....</b>	<b>37-41</b>
<b>2.2 Futbol hakamlarining huquqi va majburiyatlari.....</b>	<b>42-61</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>62-63</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>64</b>

## K I R I SH

**Mavzuning dolzarbligi** – Bitiruv malakaviy ishimizda futbol bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish musoboqa nizomi talablariga mos ravishda bayon etiladi, hamda o'quvchilarga futbol musoboqalarini tashkil qilish va o'tkazishga doir nazariy va amaliy bilimlar beriladi. Mustaqil o'rganish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalarni egallash nazarda tutadi.

O'zbekiston futbol federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi faoliyat ko'rsatayotgan futbol klublarini qayta tashkil etish yo'li bilan mulkchilikning turli shakllaridagi professional futbol klublarini tashkil etish to'g'risida, O'zbekiston futbolini qo'llab quvvatlash jamg'armasi tashkil etish to'g'risida O'zbekiston respublikasi prezidentining qarorini amalga oshirish maqsadida talaygina ishlarni amalga oshirdi.

Maktablarda tashkil qilingan futbol musoboqalari hamisha maktab o'quvchilarini qiziqtirib kelib o'quvchilar orasida futbolning ommaviy rivojlanishiga yordam berib kelgan, o'quvchilar sog'ligini mustaxkamlashda, iqtidorli futbolchilarni maktab terma jamoalariga saralab olishga yordam berab kelgan, shuning bilan birga uzliksiz sport musoboqalari tizimidan o'rin olgan "Umid nihollari" musoboqalariga o'quvchilarni tayyorlaydi. Shu sabab o'qituvchilar jamoasi hamisha maktab birinchiliklarini, o'quvchilar bilan birga o'tkazib kelishlari, o'z navbatita ularga musoboqalarni qoidalari va tashkil qilib o'tkazish shartlarini o'rgatishlari kerak.

1997 yil 29 avgustida «**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**» va «**Ta'lim to'g'risida**» gi qonun qabul qilindi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida to'zilgan jismoniy tarbiya tizimi o'zida jismoniy tarbiyalash sohasidagi yutuqlarni sport natijalarini maxsus ilmiy bilimlar va yoshlarni jismoniy tarbiyalash vazifalarini hal qilishda zarur bo'ladigan moddiy – texnika vositalarini mujassamlashtirgan. Bu vazifalar haqida mutafakkirlarimizdan biri «Biz odamni har tamonlama kamol toptirish uchun uning yaxshi yugura olishi, tez va chiroyli yura olishi, uning barcha a'zolari sog'lom bo'lishi, mehnatga va mudofaaga tayyor turishi bilan birga aqliy sifatleri ham o'sib borishini tarbiyalashimiz lozim» degan.

Shu nuqtai nazardan qaraganimizda jismoniy tarbiyani insonning bolaligidan boshlashimiz zarur.

Buning uchun avvalo, bolalarning o'zini sportga qiziqtirish, ular o'rtasida turli xil o'yinlarni musobaqa tarzida tashkil qilish lozimdir, chunki o'yinlarda harakatning xilma – xil qirralari ochiladi. Shu sababli jismoniy tarbiya darslarida o'yinlar qo'llash ijobiy xodisadir. O'yin usulida o'tkaziladigan jismoniy mashqlarning afzalligini barchamiz yaxshi bilamiz. O'yinlarning o'ziga xos turi va uslubini o'qituvchi tanlaydi. Mashg'ulot davomida bolalarning epcilligi, chaqqonligi, tezkorligi, kuchliligi va quvvati aniqlanadi. O'yinlar bolalardagi ana shu sifatlarni rivojlantiradi va ularni darsga jalb qiladi, o'z navbatida bolalarni o'qituvchi bilan yaqinlashtiradi ham. Natijada jismoniy tarbiya fanidan qo'yilgan davlat ta'lim standartlari talablari bajariladi, o'yinlarni yaxshi pedagogik darajada tashkil etish uchun bolalarni yoshi, jinsi va qiziqishlariga mos tarzda ularning jismoniy imkoniyatlarini, psixologik xususiyatlarini xisobga olish muhimdir.

O'quvchilarni har tmonlama jismonan baquvvat qiladigan sport turlaridan bo'lgan futbol mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish xususiyatlarini e'tiborga olish lozim.

Musoboqalarni o'tkazishda hakamlarning ya'ni bosh hakam va yordamchi hakamlarning tarbiyachi - pedagog va o'yin rahbari sifatidagi o'rnining ahamiyati nihoyatda katta va juda ma'suliyatlidir. Halol hakamlilik qilish, o'yin jarayonida maydonda ro'y beradigan qo'polliklarni o'z vaqtida payqab o'yin qoidasiga binoan tegishli choralar qo'llash, ayrim futbolchilarning o'yindagi intizomsizliklariga qarshi qat'iy kurashish, musobaqalashayotgan jamoa o'yinchilariga o'z vaqtida tanbeh va ko'rsatmalar berish musobaqani taktik va texnik jihatdan yuqori darajada o'tkazishga yordam beradi.

Musoboqalarni davrali tizimda o'tkazish ko'p vaqt olishiga qaramay o'quvchilar orasida o'tkazilsa ishtirokchilarda musoboqalarga bo'lgan moslashuvini oshiradi. Ular tayyorgarligini muntazam nazorat qiladi.

***Ishning maqsadi*** – Futbol musoboqalarini o'tkazishda musoboqa turlarini aniqlab davrali tizim, mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketish tizimi, ikki

mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketish tizim va aralash tizimlarda musoboqalarni tashkil qilish va o'tkazish o'rganishdan iborat.

***Ilmiy ishning yangiligi-*** O'zbekistonda yosh iqtidorli futbolchilarni musobaqalarga tayyorlash maqsadi va vazifalari.

***Ilmiy tadqiqot metodlari:*** Tadqiqotda qo'yidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi: Kuzatish, anketa, intervyu, suhbat eksperiment.

***Nazariy va amaliy ahamiyati:*** Chiqib ketish tizimida futbol musoboqalarini tashkil qilish va o'tkazish orqali o'quvchilarni ushbu sport turiga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, ularga futbol musoboqalarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasini o'rgatish, hakamlilik amaliyoti bilan tanishtirish, maktab jamoasini, yosh futbolchi bolalar va qizlarni futboliga qiziqtirish va jalb qilishdan shu bilan birga maktab futbol jamoasini shakllantirib shahar, viloyat va "Umid Nihollari" va Viloyat Respublika musoboqalariga ularni tayyorlashdan iborat.

## **I-BOB FUTBOL MUSOBAQALARINI REJALASHTIRISH VA O'TKAZISH.**

### **Futbol musoboqalari va ularni o'tkazish xaqidagi "Nizom"**

O'rta ta'lim maktablarida va Kasb – hunar kollejlarda futbol musoboqalari darsdan tashqari paytlarda o'quv yurti birinchiliklari sifatida o'tkazilib kelinadi. Musoboqalar o'quvchilarini mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mamlakatimizda futbolning ommaviy rivojlanishiga yordam beradi, o'quvchilar sog'ligini mustaxkamlaydi, iqtidorli futbolchilarni maktab terma jamoalariga saralab olishga yordam beradi, shaxar birinchiliklarda ishtirok etuvchilarni tanlab olishga xizmat qiladi, shuning bilan uzliksiz sport musoboqalari tizimidan o'rin olgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod" sport musoboqalariga tayyorlaydi. Bolalar futbol o'yinlarida, ya'ni mashg'ulotlarida muntazam qatnashmay turib yuqori natijalarga erisha olmaydilar. Musobaqalar musobaqa qatnashchilarining va umuman jamoaning jismoniy, texnik, taktik va axlokiy-irodaviy jihatdan tayyorgarlik darajasini aniqlaydi, o'quv-mashg'ulot jarayonining ahvoli va yo'nalishini aniqlash imkonini beradi, maktab jismoniy tarbiya jamoasini ishiga baho beradi. Musobaqa natijalari o'quv-mashg'ulot ishlarini yakunlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Musoboqaning g'olib jamoalarni aniqlaydi.

### **1.1 Fudbol musobaqalarini rejalashtirish**

Futbol bu «oyoq to'pi» degan ma'nodagi inglizcha so'z bo'lib, Frantsiya, Ispaniya, Rossiyada shu nom saqlanib qolgan.

Futbol bu chinakam atletik o'yin. U tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilik va sakrovchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Futbolchi o'yin paytida xaddan tashqari ko'p ish bajaradi. Bu esa odamning funktsional imkoniyatlari darajasini oshirishga, ma'naviy, irodaviy xislatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Futbol o'ynash umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rishda yaxshi vosita bo'lib xizmat qila oladi. Yonalishni o'zgartirib xilma-xil yugurish, sakrashning turli xillari, struktura jixatdan turlicha gavda harakatlari, to'pni tepish, to'xtatib olish va olib yurish,

maksimal tezlikda harakat qilish, irodaviy xislatlarning, taktik tafakkurning kamol topishi kabilar, futbolni har qanday ixtisosdagi sportchiga zarur bo'lgan ko'pgina muxim xislatlarni o'stiradigan sport o'yini deb xisoblash imkoniyatini beradi.

Hozirgi zamon futbolining «ajdodi» bundan ikki ming yil avval qadimgi Sharq xalqlari va antik dunyo davlatlari Gretsiya va Rimda ma'lum bo'lgan «Garponon» (o'sha paytda futbol shunday atalar edi) o'yinini o'ynagan qadimgi Gretsiya o'smirlari maydon o'rtasidan turib to'pni raqiblar tomoniga o'tkazishgan, Goy Yuliy Sezarning rimlik ligionerlari to'pni har qanday usul va priyomlarni qo'llagan holda ustunlar orasiga kirgizishga harakat qilganlar. O'rta asrlarda o'yin keng tus oldi. Bunda ko'cha va qishloqlar maydon o'rnida xizmat qilardi. Musobaqalar kun o'rtasida boshlanar edi va qorong'u tushgancha davom etardi. To'pni butun shahar bo'ylab ma'lum bir joygacha surib kelishga erishgan «komanda» g'olib xisoblanardi. O'yin tartibsiz bir urib yigitga o'xshar, ko'p xollarda qon to'kar, mushtlashishgacha borib etardi. Shu sababdan va «jin o'yin» sifatida ingliz qirollari futbolni ko'p marta taqiqlaganlar. Bu taqiq 200 yil amalda bo'ldi.

XIX asr o'rtalariga kelib, sport metodi jismoniy tarbiyaning eng ma'bul metodi deb topilib, sport xamda sport o'yinlari jismoniy rivojlanishining samarali vositasi b'lib qolgandan keyin futbol tarixida yangi bosqich boshlandi.

Oyoqda to'p o'ynash birinchi galda ingliz kollejlari hamda universitetlarida yoyildi. XIX asrning ikkinchi yarmidan futbol o'yinida ochiq oydin ikki yo'nalish tarkib topadi. Ulardan birini London hamda Kembrij kollejlari qollab quvatlar edi. Bular 1863 yili futbol assotsiatsiyasi tuzadilar va yumaloq toni oyoqda o'ynashi rasm qilishga qaror qiladilar. 1848 yili Kembrij futbol klubi birinchi bor yagona o'yin qoidalarini joriy qiladi va bu qoidalarni nashr etishga qaror qilinadi. Afsuski, ular bosmadan chiqmay yo'qolib ketadi. Bizgacha etib kelgan qoidalar 1863 yil 8 dekabrda e'lon qilingan. Bu qoida 13 banddan iboratdir. hozir biz bilgan futbol ana shunday paydo bo'lgan. 1863 yilgi qoidalar hozirgi qoidalardan farq qilgan. 1871 yili golkipper ( darvozabon ) larga qo'lda o'ynash ruxsat berildi.



Burchakdan tǵpni kiritish 1873 yilda kiritildi. 1875 yili ustunlarni birlashtirib turgan arqon erdan 2,44 m balandlikda yotqizilgan tǵsinga almashtirildi. 1882 yili 4ta mustaqil futbol ittifoqi Angliya, Shotlandiya, Uels va Irlandiya futbol ittifoqlari birlashdilar. Futbol maydonida xakam birinchi marta 1880 – 1881 yillarda ishtrok etadigan bǵldi. 1891 yili xakam maydonga ikkita yordamchisi bilan tushadigan bo'ldi. Xalqaro miqyosidagi dastlabki futbol o'yini 1873 yili Angliya va Shotlandiya futbol jamoalari o'rtasida bo'lgan edi. Futbol 1875 yilda Gollandiyada ǵynala boshlandi, 1882 yildan Shveysariyada, 1890 yildan Chexiyada, 1894 yildan Avstriyada, 1897 yildan Rossiyada o'ynala boshladi.

1904 yili Xalqaro futbol assotsiatsiyasi (FIFA ) tuziladi. hozir uning sostavida 190 ga yaqin mamlakat bor. 1954 yildan beri Evropa futbol ittifoqi UEFA ham ishlab turibdi. Unga 50 ga yaqin mamlakat a'zo bo'lib kirgan. 1930 yildan beri har to'rt yilda jaxon chepionati, 1958 yildan beri esa Evropa chempionati utkazilib kelinmoqda 1908 yili futbol olimpiya o'yinlari dasturiga kiritildi. UEFA raxbarligida quydagi kubok o'yinlari o'tkazilib turadi:

Evropa chempionlari kubogi (1956 yildan beri).

Kubok egalari kubogi (1961 yildan beri).

Bular endilikda UEFA kubogi deb yuritiladi.

Futbol o'yin maydoni.

O'lchamlar.

O'yin maydoni to'qri burchak shaklida buladi. Yon chiziqlar darvoza chiziqiga nisbatan uzunro? bulishi kerak.

Uzunligi: 120m, 90m.

Eni: 45m, 90m.

halqaro matchlarda.

Uzunligi : minimum 100m.

maksimum 110m.

Eni : minimum 64m.

maksimum 75m.

## Belgilar.

Maydon uchun belgilar chiziqlar yordamida amalga oshiriladi.

Bu chiziqlar ular chegaralab turgan maydonga kiradi. Uyin maydonini chegaralab turgan 2ta uzun chiziqlar yon chiziklar 2ta qisqasi darvoza chiziqlari deyiladi. Xar qanday chiziklar eni 12 sm dan oshmasligi kerak.

O'yin maydoni urta chiziq yordamida 2 yarim qismga bulinadi.

O'rta chiziq o'rtasida maydon markazi belgilanadi. Maydon markazidan 9,15 m radiusda aylana o'tkaziladi.

Darvoza maydoni.

Darvoza maydoni har ikkala yarim qismining oxirida qo'yidagicha bo'ladi. Darvozaning har qaysi ustuni ichki tomonidagi nuqtadan 5,5 m masofada darvoza chizigiga tug'ri burchak qilib maydon ichiga 2 chizik tortiladi. 5,5 m masofada bu chiziqlar darvoza chiziqiga parallel qilib boshqa chiziq bilan birlashtiriladi. Bu chiziqlar va darvoza chiziqi chegaralab turgan zona, darvoza maydoni deyiladi.

Jarima maydoni.

Jarima maydoni har ikkala yarim qismining oxirida kuyidagicha bo'ladi.

Darvozaning har qaysi ustuni ichki tomonidagi nuqtadan, 16,5m masofada darvoza chiziqiga to'g'ri burchak qilib, maydon ichiga ikki chiziq tortiladi. 16,5m masofada darvoza chiziqiga parallel xolatda boshqa chiziq bilan birlashtiriladi. Bu chiziqlar va darvoza chiziqi chegaralab turgan zona jarima maydoni deyiladi. har qaysi jarima maydoni ichida darvozaning ikki ustuni o'rtasida bir qil masofada joylashgan nuqtadan 11 m masofada 11 metrlik belgi quyiladi. Jarima maydonchasi tashqarisida 11 metrlik nuqta markaz qilib olinib 9,15 m. masofada aylana chiziladi.

Bayroqlar

Maydonning har qaysi burchaklarida balandligi 1,5 m dan oshmagan, uchi o'tkir bo'lmagan bayroq y'rnatiladi.

Bayroqlar y'rtta chiziqning har ikkala tomonida, yon chiziqdan 1m masofadagi uzoqlikda o'rnatilishi mumkin.

Burchak sektori.

har qaysi burchak bayroqidan o'yin maydoni ichiga qarab 1m radiusda aylana tortiladi.

Darvoza.

har qaysi darvoza chiziqining markazida darvoza joylashadi.

Ular burchak bayroqlari bilan bir xil masofada joylashgan, tepadan gorizontal tusin bilan birlashtirilgan ikki vertikal xolatdagi ustundan iborat.

Ustunlar oraliqi - 7,32 m. Tusinning pastki qismidan tekis ergacha bo'lgan masofa – 2, 44 m.

har ikki ustun va tusin kesishgan joy bir xil b'ylishi va 12 sm dan oshmaslik kerak.

Darvoza chiziqining eni ustunlar va tusin eni bilan bir xil bo'ladi. Darvoza va darvoza orqasidagi erga to'r o'rnatiladi. To'r ishonchli o'rnatilgan va darvozabonga xalaqit bermaydigan bo'lishi kerak. Darvozaning ustunlari va tusini oq rangda bo'lishi kerak. Xavfsizlik.

Darvoza erga ishonchli urnatilgan bo'lishi kerak. Ko'chirma darvozadan foydalanishga ruxsat beriladi, agar darvoza ushbu qoida talablariga javob bersa.

### **XALQARO O'YIN QARORI.**

Agar darvoza to'sini qiyshaysa yoki sinsa, toki to'sin tuzatilmaguncha yoki almashtirilmaguncha o'yin t'yxatiladi. Agar tuzatishning imkoni bo'lmasa match tugallanadi. Tusinning o'rniga arqon ishlatish mumkin emas . Agar tusinni tuzatishning iloji bo'lsa o'yin to'xtatilganda to'p qaerda bo'lsa o'sha joydan « baxsli to'p » bilan o'yin davom etiriladi.

Tusin va ustunlar yoqochdan, metaldan yoki ruxsat berilgan standartga mos materialdan tayyorlanadi. Ularning ko'ndalang kesishgan joyi kvadrat to'g'ri burchak aylana yoki ellips shaklida b'ylishi mumkin: ular y'inchilarga xavf to'dirmasligi kerak

Jamoaning maydonga chiqqan vaqtdan boshlab ularning tanaffusga chiqqunlarigacha, tanaffusdan so'ng ularning maydonga qaytib chiqishlaridan to match tugagunga qadar o'yin maydonida va uning jixozlarida xech qanday reklamaga ruxsat berilmaydi.

Darvoza, setka, bayroqlarda har qanday reklama ko'rinishlaridan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Bu narsalarga chetdan xech qanday jixozlar maxkamlanib qo'yishi mumkin emas masalan ( kameralar, mikrafonlar)

Texnik zona doirasidagi erda va yon chiziqdagi 1m masofada o'yin maydonining tashqarisida xech qanday reklama bo'lmasligi kerak.

Darvoza chiziqi va darvoza setkasi o'rtasida xam reklamaga ruxsat berilmaydi.

O'yin maydoni tashqarisida burchak yoyidan 9,15m masofada darvoza chiziqiga to'g'ri burchak ostida belgi qo'yilishi mumkin, burchak t'ypi bajarilganda shu masofaga rioya qilishni ta'minlash uchun

Futbol to'pining o'lchamlari va sifatlari.

To'p :

Charmdan yoki shunga o'xshash materialdan aylana shaklda tayyorlangan bo'ladi.

Aylnasining uzunligi 70 sm dan oshmagan va 68 sm dan kam bo'lmagan xolatda bo'ladi.

Musobaqa boshlanish vaqtida 450 grammdan oshmagan va 410 grammadan kam bo'lmagan b'ylishi kerak.

Havo bosimi 0,6 – 1,1 atmosfera (600-1100 gramm kv sm) b'ylishi kerak.

Yarosiz to'pni almashtirish.

Agar to'p o'yin vaqtida yaroqsiz qolga kelsa.

O'yin to'xtatiladi.

To'p yaroqsiz xolga kelgan joydan « baxsli to'p » o'yini bilan o'yin yangilanadi.

Agar to'p o'yinda bo'lmagan vaqtda yorilsa yoki yirtilsa – boshlang'ich zarbada, darvozadan zarbada, burchak, jarima, erkin zarbalarda, 11m nuqtadagi zarbada yoki tashlashda.

O'yin qoidasiga mos ravishda yangilanadi.

To'p o'yin vaqtida faqatgina qakam ko'rsatmasi bilan almashtirilishi mumkin.

Sport musobaqalari sportchilarning malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular jismoniy, texnik, taktik, ruhiy, funktsional tayyorgarliklarni aniqlashga va takomillashtirishga yordam beradi hamda qilinayotgan mehnatni natijasini ko'rsatadi.

To'g'ri va yaxshi tashkil qilingan musobaqalar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki musobaqalar faqat jismoniy sifatlargagina (kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik va egiluvchanlik) emas, balki ruhiy-psixologik sifatlarga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Musobaqa davrida sportchilarning tashkilotchilik, o'zini tuta bilishlik, jamoa maqsadini o'z maqsadidan yuqori qo'ya olishlik kabi yana bir qancha sifatlari ham takomillashadi.

Musobaqalarda qatnashuvchilar avvalombor, tajriba almashadilar, trenerlar esa yangi trenirovka usullarini sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, sport musobaqalari sport turlarini targ'ib qilishning eng yaxshi va hammabop shakllaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda musobaqalar o'tkazilishi tufayligina sport o'yinlaridan basketbol, voleybol, futbol, gandbol, tennis va boshqalar ommaviylashdi. Demak, musobaqasiz sportning bo'lishi mumkin emas.

### **Musobaqalarning turlari.**

Musobaqalar qo'yilgan vazifalargagina qarab: birinchiliklar yoki chempionatlar, kubok musobaqalari, qisqartirilgan, baravarlantirilgan, klassifikatsiya va saralash musobaqalari, match va o'rtoqlik uchrashuvlar kabi turlarga bo'linadi.

Birinchiliklar yoki chempionatlar eng katta musobaqalardan bo'lib, ularda kollektiv, tuman, shahar, respublika chempioni degan faxriy unvon beriladi. Ular yilda bir marta o'tkaziladi. Birinchilik g'oliblari oltin, kumush va bronza medallari bilan mukofotlanadilar.

Kubok musobaqalari "yutkazgan chiqib ketish" printsiplida o'tkaziladi. Bu musobaqalar ko'p vaqt talab qilmaydi va ko'p qatnashuvchilarni jalb qilish imkonini beradi.

Qatnashuvchilarning tayyorgarligi har xil bo'lganligi uchun kuchlirok jamoalarning uchrashuvlarini oxirgi bosqichlarga mo'ljallash kerak.

Qisqartirilgan musobaqalar (blitsturnirlar)da ko'p jamoalar qatnashganlari holda bir kunda o'tkaziladi. Buning uchun o'yin vaqti 30 minutgacha qisqartiriladi. Bunday musobaqalar mavsumning ochilishiga yoki bayramlarga bag'ishlab o'tkaziladi.

Baravirlashtirilgan musobaqalar tayyorgarligi har xil bo'lgan jamoalar orasida o'tkaziladi. Jamoalarning qiziqishini saqlab qolish uchun kuchsizrok jamoaga oldindan yoki uchrashuv tamom bo'lgandan so'ng qo'shimcha ochkolar beriladi.

Klassifikatsiya musobaqalari jamoalarning (o'yinchilarning) tayyorgarligini aniqlash, sport klassifikatsiyasining razryad talablarini bajarish maqsadida o'tkaziladi.

Saralash musobaqalari tayyorgarligi eng yaxshi jamoalarni (o'yinchilarni) aniqlab, keyingi yirik musobaqalarda qatnashtirish uchun o'tkaziladi.

Match uchrashuvlari musobaqalar kalendarida ko'zda tutilgan va an'anaviy hisoblanadi. Uchrashuvlarda ikki va undan ortiq jamoalar qatnashishi mumkin. Musobaqalarning bunday turlari alohida shaharlar, viloyatlar hamda chet davlatlar orasida do'stlik munosabatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

O'rtoqlik uchrashuvlari bo'lajak musobaqalarga va sport trenirovkasining ba'zi bir bo'limlari bo'yicha tayyorgarlikni aniqlash maqsadida ayrim jamoalar o'rtasida o'tkaziladi.

### **Musobaqa o'tkazish sistemalari.**

Musobaqa paytida hamma jamoalarga g'alaba uchun kurashishga bir xil sharoit yaratib berish va g'oliblarni haqiqiy natijalar asosida aniqlash kerak.

Musobaqalarni o'tkazish sistemalari har xil bo'lishi mumkin. Lekin u yoki bu sistemalarni tanlashda quyidagi sharoitlarni hisobga olish lozim:

- a) musobaqa oldida turgan vazifalarni ;
- b) musobaqa o'tkazish sharoitlarini;

- v) qatnashuvchi jamoalarning sonini;
- g) o'tkazilayotgan musobaqaning turlarini;
- d) qatnashuvchilarning sport tayyorgarligi va ishlab chiqarishda bandligini;
- e) musobaqa o'tkazish joylarining bandligi, soni va hududiy joylashuvini.

Umuman olganda sport o'yinlari musobaqalarini Utkazish amaliyotida asosan ikkita (chiqib ketish va aylanma) sistema qo'llaniladi.

Bu ikki sistemaning qo'shilishi natijasida uchinchi – aralash sistema paydo bo'ladi.

### **Chiqib ketish sistemasi bo'yicha musobaqalar o'tkazish.**

Bu sistema bo'yicha musobaqalar o'tkazilganda uchrashuvda yutqazgan jamoa keyingi uchrashuvlarda qatnashmaydi. Natijada musobaqa oxirida biror marta ham yutqazmagan jamoa qoladi. Ana shu jamoa g'olib hisoblanadi. Oxirgi (final) uchrashuvda g'olib jamoaga yutqazgan jamoa ikkinchi hisoblanadi.

Bu sistemaning afzalligi shundaki, agar 64 jamoa bilan aylanma sistema bo'yicha musobaqao'tkazish uchun 63 kalendar kuni talab qilinadigan bo'lsa, chiqib ketish sistemasi bo'yicha esa faqat 6 kalendar kunining o'zi kifoya. Lekin u bir qator kamchiliklarga ham ega. Bu sistema barcha jamoalarning haqiqiy o'yinlarini aniqlash imkonini bermaydi va shu usul qo'llanilganda aksariyat jamoalar juda kam uchrashuvlarda qatnashadi.

Birorta kuchli jamoa birinchi kunning o'zida mag'lubiyatga uchrab, musobaqalardan chiqib ketishi mumkin.

Chiqib ketish sistemasi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda hamma uchrashuvlar biror jamoaning g'alabasi bilan tugallanishi lozim.

Bu sistema ikki variantdan iborat:

- a) bir marta mag'lubiyatga uchragandan keyin chiqib ketish;
- b) ikki marta mag'lubiyatga uchragandan keyin chiqib ketish. (Ikkinchi variant juda kam hollarda qo'llaniladi.)

Bir marta mag'lubiyatga uchrab chiqib ketish usuli bilan o'tkaziladigan musobaqa uchun quyidagicha kalendar tuziladi. Avval musobaqada qatnashayotgan jamoalarning uchrashuv tartibini belgilaydigan jadval tuziladi. So'ng qur'a yordamida har bir jamoaning jadvaldagi tartib nomeri aniqlanadi.

Agarda qatnashayotgan jamoalarning soni  $2^n$  (4, 8, 32, 64 va boshqa)ga teng bo'lsa, u holda hamma jamoalar musobaqaga birinchi kalendar kunida qatnashadilar. Birinchi turda jadvalda yonma-yon turgan jamoalar uchrashadi: birinchi jamoa ikkinchi bilan, uchinchi jamoa to'rtinchi jamoa bilan va h.k. Ikkinchi turda birinchi turning g'oliblari qatnashadilar: birinchi juftning g'olibi ikkinchi juft g'olibi bilan uchrashadi va h.k. Bir mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish usuli (olimpiya usuli deb ham ataladi) bilan musobaqa o'tkazish tashkil qilinsa va bunga necha kun kerakligini aniqlash lozim bo'lsa, ko'yidagi qoidani qo'llash mumkin. Qatnashuvchi jamoalar soni ikkining eninchi darajasiga ( $2^n$ ) teng bo'lsa, ya'ni  $2^2$ ,  $2^3$ ,  $2^4$ ,  $2^5$ ,  $2^6$  va hokazo, darajani ko'rsatib turgan son (daraja ko'rsatkichi) necha bo'lsa, shuncha kun kerak bo'ladi. Daraja ko'rsatkichi musobaqa necha turdan iborat ekanligini ham bildiradi. Misol uchun,

a) 8 ta jamoa (sakkiz ikkining uchinchi darajasi, ya'ni  $2^3$  ga teng) ishtirok etadigan musobaqa 3 turdan iborat bo'lib, uch kun davom etadi.


Agar qatnashuvchi jamoalarning soni  $2^n$  darajasidan ortiq bo'lsa, u holda daraja ko'rsatkichiga 1 sonini qo'shish bilan musobaqa necha turdan iborat ekanligini hamda necha kun kerakligini aniqlab olinadi. Misol uchun, b) 10 ta jamoa ishtirokidagi musobaqa g'olibini aniqlash uchun 4 kun kerak bo'ladi. Nega deganda, 10 ikkining uchinchi darajasi –  $2^3$  dan, ya'ni 8 dan ortiq, shuning uchun yuqorida aytganimizdek daraja ko'rsatkichiga (bu erda uchga) 1 sonini qo'shamiz va hosil bo'lgan son (bu misolda 3Q1q4), ya'ni yig'inda musobaqa necha turdan iborat ekanligini va necha kun kerakligini anglatadi.




**Musobaqada ishtirok etadigan jamoalarning soniga qarab musobaqa necha turdan iborat ekanligini va musobaqa qancha kun davom etishini aniqlash jadvali.**

Jamoalar soni	Turlar va kunlar soni						
	1	2	3	4	5	6	7
2	Q						
3-4		Q					
5-8			Q				
9-16				Q			
17-32					Q		
33-64						Q	
65-128							Q

Yuqoridagi jadvaldan shuni xulosa qilsa bo'ladi, misol uchun 4 ta jamoa ishtirokidagi uchrashuvlar quyidagidek bo'ladi.



7 ta jamoa ishtirok etganida



Bir mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish usuli bilan musobaqa o'tkazilganda, uchrashuvlar soni qatnashayotgan jamoalar sonidan bitta kam bo'ladi.

Birinchi turda hamma jamoalar musobaqada qatnashmagan holatlarda ikkinchi turda jamoalarning sonini  $2^n$  darajasiga keltirish maqsadida jadvalning o'rtasidagi jamoalar birinchi turdan, chetdagi (yuqoridagi va pastdagi) jamoalar esa ikkinchi turdan musobaqalarga qatnasha boshlaydilar.

Birinchi turda qatnashmaydigan jamoalarning soni juft bo'lganda yuqoridan va pastdan babbarobar sondagi jamoalar birinchi tur o'yinlaridan ozod qilinadi. Agar birinchi turda qatnashmaydigan jamoalar soni toq bo'lsa, birinchi tur o'yinlaridan jadvalning pastidan yuqoriga nisbatan bitta jamoa ortiq ozod qilinadi.

Buni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$(a - 2^n) \cdot 2 \text{ q } x$$

$a$  – musobaqaga kelgan jamoalar soni;

$2^n$  – jamoalarning soniga yaqin ikkinchi darajasi;

$2$  – birinchi turda ishtirok etadigan jamoalarni juftlashtiruvchi son;

$x$  – birinchi turda ishtirok etadigan jamoalar soni.

Misol uchun, 12 ta jamoa va 13 ta jamoa musobaqaga ishtirok etadigan holatlarni ko'rib chiqaylik:

$$(a - 2^n) \cdot 2 \text{ q } x;$$

$$(12 - 2^3) \cdot 2 \text{ q } (12-8) \cdot 2 \text{ q } 4 \cdot 2 \text{ q } 8;$$

$y$ 'ni birinchi turda 8 ta jamoa (3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, jamoalar) ishtirok etar ekan, 4 ta jamoa (1-, 2-, 11-, 12-,) ikkinchi turdan ishtirok etadi (yuqorida keltirilgan 12 ta jamoa ishtirok etgan kalendarga qarang).

O'n uchta jamoa o'ynaganda quyidagidek bo'ladi:

$$(a - 2^n) \cdot 2 \text{ q } x;$$

$$(13 - 2^3) \cdot 2 \text{ q } (13 - 8) \cdot 2 \text{ q } 5 \cdot 2 \text{ q } 10;$$

ya'ni birinchi turda 10 jamoa (2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-) ishtirok etar ekan, 3ta jamoa (1-, 12-, 13-) ikkinchi turdan musobaqada ishtirok etadi (yuqorida keltirilgan 13 ta jamoa uchun tuzilgan kalendarga qarang).

Kuchli jamoalar I turning o'zida o'zaro uchrashib mag'lubiyatga uchrab, chiqib ketishlarining oldini olish uchun ularni jadvalga tarqatib chiqish mumkin.

Ayrim vaqtlarda kuchli jamoalar musobaqalarga I turdan emas, balki keyingi turlardan, masalan chorak finaldan qo'yiladi.

Ikki mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish usuli qatnashayotgan jamoalarning soni ko'p bo'lmagan paytlarda qo'llaniladi. Bunda jamoa ikki marta mag'lubiyatga uchragandan so'ng musobaqalardan chiqib ketadi.

Izoh. Agar asosiy jadvaldagi jamoa (bu misolda 3-jamoa) qo'shimcha jadvaldagi bir marta yutqazgan jamoaga ya'ni 1-jamoa, yutqazib qo'ysa, u holda g'olibni aniqlash uchun yana o'zaro bir marta o'ynashlari va bu uchrashuvda kim yutsa o'sha jamoa g'olib hisoblanadi.

### **Aylanma sistema.**

Musobaqalar aylanma sistemada o'tkazilganda hamma jamoalar bir-birlari bilan bir, ikki yoki undan ham ko'proq uchrashib chiqishlari mumkin. Pirovardida butun musobaqa davomida eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib chiqadi.

Aylanma sistema eng takomillashgan sistema hisoblanadi. Chunki u faqat birinchi o'rinni egallagan jamoanigina aniqlab qolmay, balki musobaqada qatnashayotgan hamma jamoalarning tayyorgarligiga qarab munosib o'rinlarni aniqlab beradi. Bu sistema qatnashuvchilardan katta tayyorgarlikni va basketbolchilarning butun musobaqa davrida yuqori sport formasida bo'lishlarini talab qiladi.


Aylanma sistemaning salbiy tomoni – musobaqa o'tqazish uchun ko'p vaqt talab qilishidir. Vaqtdan yutish uchun jamoalarni bir nechta guruhlariga bo'lish mumkin.

Ushbu sistema bo'yicha musobaqalarda jamoalar bir-birlari bilan bir martadan uchrashtirilib, musobaqa tur yoki turnir sifatida o'tkazilishi mumkin.

Aylanma sistemasi bo'yicha kalendar tuzishda eng avval musobaqalar o'tkazish uchun kerakli kalendar kunlari quyidagicha aniqlanadi:


qatnashuvchi jamoalarning soni juft bo'lgan paytda – musobaqa uchun kerakli kalendar kunlarining soni jamoalarning sonidan bitta kam bo'ladi, toq bo'lganda – teng bo'ladi.

Aylana sistemasi bo'yicha kalendar ikki usulda tuzilishi mumkin: takomillashgan va soddalashtirilgan. Birinchi usulda avval toq sonli jamoalar uchun jadval tayyorlanadi. Jamoalarning soni juft bo'lganda oxirgi son hisoblanmay turiladi. Avval kalendar kunlarining soniga teng vertikal chiziqlar chiziladi. Birinchi chiziqning tepasiga birinchi nomer, shu chiziqning atrofiga esa qolgan nomerlar soat strelkasining harakati bo'ylab joylashtiriladi. Boshqa vertikal chiziqlar orasiga nomerlar ketma-ket «ilon izi» shaklida yozib chiqiladi. 5-6 jamoa uchun o'yin kalendari quyidagicha tuziladi:



Jamoalarning soni toqbo'lgan paytlarda vertikal chiziqlarning yuqorisidagi va pastidagi jamoalar shu o'yin kunlari musobaqalarda qatnashmaydilar.

Jamoalarning soni juft bo'lgan paytlarda esa vaqtincha hisoblanmay turilgan oxirgi juft son va pastida joylashgan raqamlarga (qo'shib) juftlab chiqiladi. Bunda yuqoridagi raqamlarga – chap tomondan, pastdagilarga o'ng tomondan yozib qo'yiladi.



Shundan so'ng har bir kalendar kunni quyidagidek, avval vertikal chiziqning o'ng tomonida joylashgan raqam, so'ng chap tomonida joylashgan raqam ko'chirib yoziladi. Bunda yana bir narsaga ahamiyat berish lozim: birinchi kalendar kunni yuqoridan pastga, ikkinchi kunni pastdan yuqoriga, uchinchi kunni yuqoridan pastga qarab va hokazo tartibda (quyidagi misol singari) ko'chiriladi.

I kun	II kun	III kun	IV kun	V kun
1-(6)	(6)-4	2-(6)	(6)-5	3-(6)
2-5	5-3	3-1	1-4	4-2
3-4	1-2	4-5	2-3	5-1

Shunday qilib, takomillashtirilgan usul bo'yicha kalendar tuzilganda har bir komanda o'z maydoni va raqib maydonida galma-gal musobaqalashish imkoniga ega bo'ladi.

Soddalashtirilgan usul tur va turnir musobaqalarining kalendarini tuzishda qo'llaniladi. Musobaqaga ishtirok etadigan komandalarning soni toq bo'lgan paytda shartli ravishda «0» nomeri qo'shiladi. Qaysi bir komanda «0» bilan juftlashsa, o'sha kuni u musobaqalarda qatnashmaydi (dam oladi).

Masalan, 7 ta jamoa uchun o'yin kalendari quyidagidek tuziladi:

I kun	II kun	III kun	IV kun	V kun	VI kun	VII kun
1-0	1-7	1-6	1-5	1-4	1-3	1-2
2-7	0-6	7-5	6-4	5-3	4-2	3-0
3-6	2-5	0-4	7-3	6-2	5-0	4-7
4-5	3-4	2-3	0-2	7-0	6-7	5-6

Jamoalarning soni juft bo'lgan paytda «0» o'rniga oxirgi juft son yoziladi. Yuqorida keltirilgan misolda «8» raqami yoziladi.

Soddalashtirilgan usul bilan musobaqalarning kalendarini tuzishda «1» raqami har doim o'z o'rnida siljmay turadi, qolgan raqamlar esa soat strelkasining harakatiga qarama-qarshi tomoniga bir pog'ona siljishi oqibatida keyingi kun uchrashadigan jamoalarni bir-biri bilan juftlab qo'yadi.

Aylanma sistema bilan musobaqa tashkil qilinganda uchrashuvlar sonini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin.

$$(a - 1) \cdot a : 2 \text{ q } x$$

a – komandalar soni

x – uchrashuvlar soni

Misol uchun, musobaqada 5 ta yoki 6 ta jamoa ishtirok etganda nechta uchrashuv bo'lishini aniqlash:

$$(a - 1) \cdot a : 2 \text{ q } x; (5 - 1) \cdot 5 : 2 \text{ q } 4 \cdot 5 : 2 \text{ q } 20 : 2 \text{ q } 10$$

Musobaqada 5 ta jamoa qatnashganida o'nta uchrashuv bo'lar ekan;

$$(a - 1) \cdot a : 2 \text{ q } x; (6 - 1) \cdot 6 : 2 \text{ q } 5 \cdot 6 : 2 \text{ q } 30 : 2 \text{ q } 15$$

Oltita jamoa ishtirok etgan musobaqada o'n beshta uchrashuv bo'lar ekan.

Aralash sistema. Musobaqalar aralash sistemasi bo'yicha o'tkazilganda uchrashuvlarning bir qismi chiqib ketish, ikkinchi qismi esa aylanma sistemasida o'tkaziladi. Bu usul musobaqalarda qatnashayotgan jamoalarning soni ko'p hamda

ular bir-birlaridan hududiy jihatdan uzoqda joylashganlarida qo'llaniladi. Bunday holda hamma jamoalar hududiy guruhlariga bo'linadi. Musobaqalar guruhlarda chiqib ketish sistemasi bo'yicha o'tkazilsa, final musobaqalari esa aylanma sistema bo'yicha o'tkaziladi, va aksincha, o'tkazilishi mumkin.

Basketbol bo'yicha musobaqa tashkil qilinganda musobaqa kalendarining har bir juftida birinchi bo'lib yozilgan jamoa mezbon, uning raqibi esa mehmon bo'lib hisoblanadi. Uchrashayotgan jamoalarning sport kiyimlari bir xil rangda bo'lib qolsa, mezbonlar formalarini almashtirishlari shart.

### **Musobaqa natijalarini hisoblash.**

Qoidalarda qayd etilganidek, «Sof g'alaba» uchun – 3 ochko, «Galaba» uchun – 2 ochko, Mag'lubiyat uchun – 0 ochko, jamoalar uchrashuvda ishtiroki uchun – 1 ochko beriladi.

Musobaqa oxirida ochkolar soni qo'shib chiqiladi. Eng ko'p ochko to'plagan jamoa birinchi o'rinni egallaydi. Qolgan jamoalar ham yiqqan ochkolarining soniga qarab, tegishli o'rinlarni egallaydilar. Agar bir nechta jamoalarning ochkolari soni teng bo'lib qolsa, ular o'zaro uchrashganlarida qaysi jamoa g'olib chiqqan bo'lsa, shu jamoa yuqori o'rinni egallaydi.

Agar uchta va undan ortiq jamoalarning yiqqan ochkolari teng bo'lsa, kiritilgan to'plar (ochkolar)ni farqi orqali aniqlash lozim. Mabodo bu ko'rsatkich ham masalaga oydinlik kiritmasa, «sof g'alaba» qaysi jamoada ko'p bo'lsa, shu jamoa yuqori o'rinni egallaydi. Yuqorida aytib o'tilganlar ham masalani hal eta olmasa, u holda qur'a tashlash orqali jamoalar egallagan o'rinlari aniqlanadi.

### **Smeta tuzilganda quyidagilar ko'rsatiladi:**

1. Musobaqa nomi
2. O'tkazish vaqti va joyi
3. Hakamlarning soni va ish haqi
4. Qatnashuvchilar soni (shu jumladan boshqa shaharlardan kelganlar) ularni joylashtirish, ovqatlantirish va yo'l harajatiga ketadigan mablag'.



5. Musobaqa o'tkazish joyini ijarasi.
6. Mehmonxona ijarasi.
7. Musobaqa o'tkaziladigan joyni badiiy bezatish uchun ketadigan harajat.
8. Afisha, dasturlar, qaydnomalar va yozish-chizish uchun kerakli qog'oz, qalam, ruchka va shu kabilar harajati.
9. Diplom, esdalik sovg'alar, mukofotlar va shu kabilarga sarf bo'ladigan harajat.
10. Transportga ketadigan harajat.
11. Xizmat ko'rsatuvchi hodimlar uchun harajat (ishchilar, farroshlar, tibbiy hodimlar).

Musobaqa o'tkazish uchun bosh hakam va bosh kotib tasdiqlanadi.

Yirik musobaqalarni o'tkazish uchun, barcha tadbirlarni bevosita musobaqa o'tkazadigan joyda 5-7 kishidan iborat tashkiliy qo'mita tashkil qiladi. Uning vazifasiga musobaqa o'tkaziladigan joyni tanlash va jihozlash, asbob-anjomlarni tayyorlash, trenirovka va joylashish joylarini aniqlash, ovqatlanishni tashkil qilish, kotiblarni komplektlash, musobaqa oldidan xabar berish kiradi. Musobaqadan oldin xabar berish gazeta, radio, televidenie orqali musobaqa o'tkaziladigan joy, vaqt va qatnashchilar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oladi. Afishalarni, dasturlarni, qatnashchilar uchun chiptalarni oldindan tayyorlab qo'yish kerak.

Musobaqa o'tkaziladigan joy shiorlar, plakatlar, jadvallar bilan chiroyli bezatilgan bo'lishi kerak. Uning yonida qatnashchilar va hakamlar uchun xona, issiq suvi bor dush, shifokorlar xonasi bo'lishi lozim. Musobaqa o'tkaziladigan joy radiolashtirilgan bo'lishi kerak. Yuqorida qayd etilganlarni bo'lishi musobaqalarni muvoffaqiyatli o'tkazilishiga kafolat beradi.

Musobaqa qatnashchilari bilan o'tkaziladigan ishlarga quyidagilar kiradi:

- qatnashchilarni qabul qilib olish va joylashtirish;
- musobaqaga qo'yish uchun tayinlangan mandat komissiyasining ishi;
- vakillar maslahati;
- hakamlar kollegiyasining maslahati.

Qatnashchilarni qabul qilish va joylashtirishga tashkiliy qo'mita vakili rahbarlik qiladi. Agar qatnashchilar biron-bir sababga ko'ra kutib olinmasa, aeroportda va temir yo'l vokzalida ular, ya'ni mehmonlar, qaerga kelishi lozimligi to'g'risida, e'lonlar bo'lishi shart. Musobaqada xizmat qiladigan hakamlar musobaqa qatnashchilaridan alohida joyda joylashtirilishi kerak.

Musobaqaga qatnashish uchun qo'yish masalasi nizomga muvofiq mandat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Musobaqaga qo'yish javobgarligini o'z zimmasiga bosh hakam, musobaqa bosh vrachi va mandat komissiya vakili oladilar. Musobaqalarda basketbol rasmiy qoidalariga rioya qilinishi lozim.

### ***Futbol musoboqalarining turlari***

Mamlakatimizda o'tkaziladigan futbol bo'yicha musoboqalarning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarga qarab asosiy va yordamchi musobaqalarga bo'lish mumkin.

Respublikamizda yagona sport tasnifi talablariga muvofiq tashkil etiladigan va erishilgan natijalariga ko'ra sport tasnifi beriladigan hamda g'olib yoki chempion degan nom beriladigan musobaqalar asosiy musobaqalarga kiradi.

Musobaqalarning asosiy turi - taqvim musobaqalar bo'lib, ular sport tadbirlarining yagona taqvim rejasida nazarda tuziladi va tasdiqlangan "nizom" ga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Qo'yidagilar musobaqalarning asosiy turlariga kiradi:

- *birinchilik yoki chempionatlar;*
- *kubok musobaqalari;*
- *saralash musobaqalari.*

Birinchilik yoki chempionatlar – eng mas'uliyatli musobaqalar bo'lib, ularning natijalari bo'yicha g'olib jamoaga chempionlik nomi beriladi. Musobaqalarni tashkil etishning va o'tkazishning bu turi jamoalar kuchini oqilona baholashga, olib borilayotgan o'quv-mashg'ulot ishining sifatini taqqoslashga imkon beradi.

Kubok musobaqalari - juda ko'p jamoalarni jalb etish va g'olibni nisbatan qisqa muddatlar ichida aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Kubok musobaqalari eng yaxshilarni izchillik bilan olish printsipli bo'yicha o'tkaziladi.

Saralash musobaqalari musobaqalarning keyingi bosqichida qatnashish uchun eng kuchli jamoalarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Musobaqalarning yordamchi turlariga qo'yidagilar kiradi:

- *nazorat uchrashuvlari*;
- *o'rtoqlik uchrashuvlari*;
- *namunali uchrashuvlar*;
- *qisqartirilgan musobaqalar*.

*Nazorat uchrashuvlari* - jamoalarni bo'lajak musobaqalarga tayyorlash va ularning tayyorgarligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

*O'rtoqlik uchrashuvlari* - o'quv-mashg'ulot maqsadlarida yoki an'anaviy musobaqalar rejasiga ko'ra o'tkaziladi.

*Namunali uchrashuvlar* – mamlakatimizda, kishilarimiz orasida sport-ning futbol turini ommalashtirishga va sport mahoratini ko'rsatishga xiz-mat qiladi.

*Qisqartirilgan musobaqalar* - bir necha soat mobaynida o'tkaziladi. Ular, odatda, bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish kunlariga rejalashtiriladi.

Bunday futbol musobaqalarini o'tkazishda o'yin vaqti qisqartiriladi. Qisqartirilgan musobaqalarning dasturi faqat o'yinning o'tkazishnigina emas, balki o'yinchilarning texnik - taktik yoki jismoniy tayorgarliklarini aniqlashni oldiga qo'ygan musobaqalarni o'tkazishni ham o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin. Bunday musoboqalarda jamoa murabbiylari o'z jamoalari o'yinchilari imkoniyatlarini musoboqa oldi chamalab oladi.

#### *Futbol musoboqalardagi o'yin tizimlari.*

Futbol musoboqalarini o'tkazishning amaliyotda uchta asosiy tizimi qaror topgan: bular davrali tizim, bir yoki ikki marta yutqazgandan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim, avvalgi ikki tizimning kombinatsiya-sidan iborat bo'lgan aralash tizimdir.

#### *Musoboqaning davrali tizim.*

Futbol musobaqalarining ushbu davrali tizimida musoboqada ishtirok etayotgan har bir jamoa, agar musobaqa bir davrali o'tkazilsa, bir-biri bilan bir marta, agarda musobaqa ikki davrali o'tkazilsa, ikki marta uchrashishi kerak bo'ladi. Bunday musoboqa tizimi musobaqalashuvchilar kuchlari nisbatini ancha oqilona adolatli belgilashga va kuchli jamoalarni aniqlashga imkon beradi, davrali tizimda

musobaqaning umumiy yakunidagi tasodifiylik elementi ma'lum darajada bartaraf qilinadi. Davrali tizim bo'yicha futbol musobaqalarni ikki davrali qilib o'tkazish eng to'g'ri hisoblanadi.

Davrali tizim musobaqalarida ishtirokchilarining barcha o'rinlari ular to'plangan ochkolar soniga qarab aniqlanadi. Bo'lib o'tgan barcha o'yinlar natijasiga ko'ra eng ko'p ochko to'plagan jamoa (yoki jismoniy tarbiya jamoasi) g'olib hisoblanadi. Bir yoki bir necha jamoalarda ochkolar teng bo'lib qolganda, g'olibni aniqlash uchun musobaqa "Nizomi" da qandaydir qo'shimcha ko'rsatkichlar yoki tadbirlar (masalan, mazkur jamoalar o'rtasida qo'shimcha o'yin yoki shu jamoalar o'rtasidagi avval o'ynalgan o'yin natijalari, yoki kiritilgan to'plar nisbati, qur'a tashlash) nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Musobaqalar davrali tizim bo'yicha o'tkazilganda o'ynash tartibi qur'a tashlash yo'li bilan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning raqamlari aniqlanadi. Jamoalarning aniqlangan raqamlari asosida o'yinlar jadvali (kalendari) tuziladi.

Musobaqalar bir davrali qilib o'tkazilganda, o'yin bir-biri bilan bellashuvchi ikki jamoadan dastlabkisining maydonida o'tkaziladi. Agar musobaqada ikki davra nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchi o'yin keyingi jamoa maydonida o'tkazilishi kerak.

Uch usul bilan davrali tizim bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlar jadvalini tuzish mumkin.

Birinchi usul. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soniga qarab, jamoalarning umumiy soniga yaqin bo'lgan toq son olinadi va unga muvofiq ravishda vertikal (yuqoridan pastga qarab) chiziqlar o'tkaziladi. Masalan, 6 ta jamoa bo'lganda, unga (ya'ni 6 soniga) yaqin bo'lgan toq son 5 bo'ladi. Demak, besh vertikal chiziq o'tkazish zarur. Jamoalar soni 10 ta bo'lganda, unga yaqin toq son –9, demak, to'qqizta vertikal chiziq chizilgan bo'lishi kerak.

Vertikal chiziqlarning ostidan va ustidan, pastdan boshlab chapdan o'ngga qaratib jamoalar raqami ketma-ket tartibda birinchidan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soniga eng yaqin bo'lgan toq songacha, orada bir chiziq qoldirib yozib chiqiladi.

Bu raqamlar keyingi raqamlarni grafik tarzida yozish uchun dastlabki reja bo'lib hisoblanadi. Birinchi kun o'yinlar taqvimini tuzish uchun birinchi raqamdan boshlab vertikal chiziq atrofida soat strelkasiga qarshi yo'nalishda oshib boruvchi tartibda barcha ishtirok etuvchi raqamlar yozib chiqiladi. Qolgan o'yinlar kunlarining taqvimini tuzish uchun vertikal chiziqlar o'rtasidagi barcha raqamlar, avval ularning ostiga va ustiga qo'yilgan raqamlarni hisobga olgan holda, ilonizi qilib qo'yib chiqiladi. Albatta shuni ham unutmash kerakki, raqamlarni birin-ketin vertikal chiziqlarning o'ng tomonidan ortib boruvchi tartibda takrorlanib yoziladi (1-jadval).

Shundan keyin ikkinchi va qolgan taqvim kunlarida bellashuvchi futbol jamoalarni aniqlash uchun har bir vertikal chiziqning chap tomoniga avvalgi taqvim kunidagi barcha raqamlar o'zgarishsiz o'tkazilishi kerak.

## **1.2 Futbol musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish.**

Futbol musobaqalari o'quv-mashg'ulot ishlarining asosiy qismini tashkil etadi. Ular mashg'ulotlarda qiziqishni oshiradi, mamlakatda futbolning ommaviy rivojlanishiga yordam beradi. Futbolchi o'yinlarda muntazam qatnashmay turib yuqori natijalarga erisha olmaydi. Musobaqalar musobaqa qatnashchilarining va umuman komandaning jismoniy, texnik, taktik va axloqiy-irodaviy tayyorgarligi darajasini aniqlaydi, o'quv-mashg'ulot jarayonining ahvoli va yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Musobaqa natijalari o'quv-mashg'ulot ishlarini yakunlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Musobaqalar qat'iylikni, g'alabaga erishish yo'lidagi iroda kuchini, korxonalar jamoasi, shahar, respublika, mamlakat oldidagi mas'uliyat hissini tarbiyalaydi. O'yinlarning emotsional keskinligi futbolchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Ochiq havoda o'tkaziladigan musobaqalar qatnashchilarni sog'lomlashtirish jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lib, jismoniy kamolotning hammabop va qimmatli vositalaridan biridir. Musobaqalar ko'p sonli tomoshabinlarni jalb qilish bilan futbolni targ'ib qilish va ommalashtirishning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular musobaqa qatnashchilari va tomoshabinlarga uyushtiruvchi ta'sir ko'rsatib, tomoshabinlarni jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug'ullanishga jalb etadi.

Futbol hakamining tarbiyachi – pedagog va o'yin rahbari sifatidagi ahamiyati juda katta. Aniq hakamlik qilish, maydonda ro'y beradigan qo'polliklarga va ayrim futbolchilarning intizomsizligiga qarshi qat'iy kurashish, musobaqalashayotgan komanda o'yinchilariga o'z vaqtida tanbeh va ko'rsatmalar berish musobaqani taktik va texnik jihatdan yuqori darajada o'tkazishga yordam beradi.

Musobaqa turlari: Oldiga qo'yilgan vazifalarga qarab musobaqalarni asosiy va yordamchi musobaqalarga bo'lish mumkin.

Yagona sport tasnifi talablariga muvofiq tashkil etiladigan va natijalariga ko'ra sport tasnifi belgilanadigan hamda g'olib yoki chempion degan nom beriladigan musobaqalar asosiy musobaqalarga kiradi.

Musobaqalarning asosiy turi – taqvim musobaqalar bo'lib, ular sport tadbirlarining yagona taqvim rejasida nazarda tuziladi va tasdiqlangan nizomga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Qo'yidagilar musobaqalarning asosiy turlariga kiradi:

- birinchilik yoki chempionatlar;
- kubok musobaqalari;
- saralash musobaqalari.

**Birinchilik yoki chempionatlar** – eng mas'uliyatli musobaqalar bo'lib, ularning natijalari bo'yicha g'olib komandaga chempionlik nomi beriladi. Musobaqalarni tashkil etishning bu turi komandalar kuchini oqilona baholashga, olib borilayotgan o'quv-trenirovka ishining sifatini taqqoslashga imkon beradi.

**Kubok musobaqalari** juda ko'p komandalarni jalb etish va g'olibni nisbatan qisqa muddatlarda aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Kubok musobaqalari eng yaxshilarni izchillik bilan olish prinsipi bo'yicha o'tkaziladi.

**Saralash musobaqalari** musobaqalarning keyingi bosqichida qatnashish uchun eng kuchli komandalarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Musobaqalarning yordamchi turlariga qo'yidagilar kiradi:

- nazorat uchrashuvlari;
- o'rtoqlik uchrashuvlari;
- namunali uchrashuvlar;
- qisqartirilgan musobaqalar.

Nazorat uchrashuvlari komandalarni bo'lajak musobaqalarga tayyorlash va ularning tayyorgarligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

O'rtoqlik uchrashuvlari o'quv-mashg'ulot maqsadlarida yoki an'anaviy musobaqalar planida o'tkaziladi.

Namunali uchrashuvlar futbolni ommalashtirishga va sport mahoratini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Qisqartirilgan musobaqalar bir necha soat mobaynida o'tkaziladi. Ular, odatda, bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish kunlariga rejalashtiriladi.

Bunday musobaqalarni o'tkazishda o'yin vaqti qisqartiriladi. Qisqartirilgan musobaqalarning dasturi faqat o'yin o'tkazishni emas, balki o'yinchilarning texnik yoki jismoniy tayyorgarligiga doir musobaqalarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Musobaqalarni rejalashtirish: Mamlakatimizda jismoniy tarbiya harakatining tashkiliy tuzilish xususiyatlarini hisobga olgan holda respublikalar, viloyatlar, shaharlar va jismoniy tarbiya jamoalarida o'tkaziladigan futbol musobaqalarining muayyan tizimi qaror topgan. Bu tizim turli ko'lamdagi musobaqalarning mintaqaviy va muassasa prispini hisobga olgan holda muttasil, izchil bo'lishini va almashinib turishini talab etadi.

Bu musobaqalarning bir yo'la ikki joyda bo'lishi, jamoalarning haddan tashqari band bo'lib qolishi, uzoq vaqt yo'lda bo'lishning oldini olishga hamda jamoalarda to'la qimmatli o'quv-mashg'ulot ishlari uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Musobaqaning umumiy yig'ma taqvim rejasi faqat tadbirlar ro'yxati emas, balki sport tashkilotlarining futbolini yanada rivojlantirish yuzasidan birgalikda olib boradigan ishlarning chuqur o'ylangan rejasidir.

U territorial va idoralar bo'yicha uyushtiriladigan musobaqalarni o'tkazish bilan aloqador barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Respublika, viloyat o'lka va shahar musobaqalarining yig'ma taqvim rejasini yuqori tashkilotlar tomonidan rejalashtiriladigan musobaqalarni hisobga olgan holda, 4 yillik qilib tuzish maqsadga muvofiqdir. Zarur o'zgartirishlar kiritilgandan keyin futbol bo'yicha umumiy yig'ma reja tegishli jismoniy tarbiya va sport qo'mitalarining ommaviy sport tadbirlari rejasiga kiritiladi hamda barcha sport tashkilotchilari uchun majburiy hisoblanadi.

O'yin tizimlari: Amalda o'yinning uchta asosiy tizimi qaror topgan: davrali tizim, bir yoki ikki marta yutqazgandan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim, avvalgi ikki tizimning kombinatsiyasidan iborat bo'lgan aralash tizim.

Davrali tizim: Musobaqaning davrali tizimida har bir komanda, agar musobaqa bir davrali o'tkazilsa, bir-biri bilan bir marta, agar musobaqa ikki davrali o'tkazilsa, ikki marta uchrashishi kerak. Uning bunday tizim yoki adolatli musobaqalashuvchilar kuchlari nisbatini ancha oqilona belgilashga va kuchli

jamoani aniqlashga imkon beradi, bunda musobaqaning umumiy yakunidagi tasodifiylik elementi ma'lum darajada bartaraf qilinadi. Bu tizim bo'yicha musobaqalarni ikki davrali qilib o'tkazish eng to'g'ri hisoblanadi

Davrali tizimda musobaqa ishtirokchilarining barcha o'rinlari to'plangan ochkolar soniga qarab aniqlanadi. O'tkazilgan barcha o'yinlar natijasida eng ko'p ochko olgan jamoa (yoki jismoniy tarbiya kollektivi) g'olib hisoblanadi. Bir yoki bir necha jamoalarda ochkolar teng bo'lib qolganda, g'olibni aniqlash uchun musobaqa tartibida qandaydir qo'shimcha ko'rsatkichlar yoki tadbirlar (masalan, shu jamoalar o'rtasida qo'shimcha o'yin yoki shu jamoalar o'rtasidagi avval o'ynalgan o'yin natijalari, yoki kiritilgan to'plar nisbati) nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Davrali tizim bo'yicha o'ynash tartibida qur'a tashlash bilan musobaqada qatnashuvchi komandalarning nomerlari aniqlanadi. Jamoalarning aniqlangan raqamlari asosida o'yinlar jadvali (kalendari) tuziladi. Musobaqalar bir davrali qilib o'tkazilganda, o'yin bir-biri bilan bellashuvchi ikki jamoadan dastlabkisining maydonida o'tkaziladi. Agar musobaqada ikki davra nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchi o'yin keyingi jamoa maydonida o'tkazilishi kerak.

Davrali tizim bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlar kalendarini uch usul bilan tuzish mumkin.

Birinchi usul. Musobaqada ishtirok etuvchi komandalar soniga qarab, jamoalarning umumiy soniga yaqin bo'lgan tok son olinadi va unga muvofiq ravishda vertikal chiziqlar o'tkaziladi. Masalan, 6 ta jamoa bo'lganda, unga (ya'ni 6 soniga) yaqin bo'lgan toq son 5 bo'ladi. Demak, besh vertikal chiziq o'tkazish zarur. Jamoalar soni 10 ta bo'lganda, unga yaqin toq son – 9, demak, to'qqizta vertikal chiziq chizilgan bo'lishi kerak va hokazo.

Vertikal chiziqlarning ostidan va ustidan, pastdan boshlab chapdan o'ngga qaratib jamoalar nomeri ketma–ket tartibda birinchidan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soniga eng yaqin bo'lgan toq songacha, orada bir chiziq qoldirib yozib chiqiladi (10-jadval).



Bu raqamlar keyingi raqamlarni grafik tarzida yozish uchun dastlabki reja bo'lib hisoblanadi. Birinchi kun o'yinlar taqvimini tuzish uchun birinchi raqamdan boshlab vertikal chiziq atrofida soat strelkasiga qarshi yo'nalishda oshib boruvchi tartibda barcha ishtirok etuvchi raqamlar yozib chiqiladi. Qolgan o'yin kunlarining taqvimini tuzish uchun vertikal chiziq o'rtasidagi barcha raqamlar, avval ularning ostiga va ustiga qo'yilgan raqamlarni hisobga olgan holda, ilonizi qilib qo'yib chiqiladi. Shuni ham aytish kerakki, raqamlar birin-ketin vertikal chiziqning o'ng tomonidan ortib boruvchi tartibda takrorlanib yoziladi.

Ushbu musoboqa tizimi, odatda, o'yinlar qisqa muddatda o'tkazilishi kerak bo'lganda va musoboqada qatnashuvchijamoalar soni ko'p bo'lgan taqdirda qo'llaniladi. Kubok, respublika va shahar kubogi o'yinlari odatda shu tizim bo'yicha o'tkaziladi. Mag'lubiyatga uchragan jamoa musoboqalardan chiqib ketadi.

Mag'lubiyatga uchragach chiqib ketish tizimi bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlar tartibini aniqlashda avvalo musoboqada qatnashish uchun buyurtma bergan jamoalar soniga mos setka tizish zarur, shundan keyin qur'a tashlanadi. Jamoa o'zi tartib olgan raqamga mkvofiq tizulgan setkaga yoziladi. Shunday qilib, bir-biri bilan o'ynaydigan jamoalar qur'a tashlash bilan aniqlanadi. Setka jamoalar soniga qarab tuziladi. Agar jamoalar soni ikki sonining darajasiga teng bo'lsa  $2^2$  q 4;  $2^3$  q 8;  $2^4$  q 16;  $2^5$  q 32; va hokazo ), hamma jamoalar o'yinni birinchi davradan boshlaydilar.

Musoboqada qatnashuvchi jamoalar soni  $2^n$  ga teng bo'lmasa, u holda setka ikkinchi davraga kelib  $2^n$  ga teng miqdordagi jamoa qoladigan qilib tuzilishi kerak. Binobarin jamoalarni bir qismi o'yinlarni ikkinchi davradan, bir qismi esa birinchi davradan boshlaydi.

O'yinni birinchi turdan boshlaydigan jamoalar sonini aniqlash uchun qo'yidagi formuladan foydalanamiz:

#### **Futbol musoboqalarini aralash tizim**

Musoboqalar amaliyotida aralash tizim futbol musoboqalarining ikki tizimi davrali tizim va mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketila-digan tizimning kombinatsiyasidan iborat. Bu usulga binoan musoboqa-ning bir qismi (dastlabki yoki yakuniy qismi) mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim bo'yicha, boshqasi esa davrali tizim bo'yicha o'tkaziladi. Ba'zan mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim kichik guruhlariga bo'lingan jamoalar o'rtasidagi musoboqalarning dastlabki vismda qo'llaniladi, qolgan jamoalardan bitta kuchli jamoalar gurihi tashkil etiladi, bular musoboqalarning yakuniy qismida bir-birlari bilan davrlvi tizim bo'yicha uchrashadilar.

Mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim bo'yicha (bunda musoboqada qatnashuvchi jamoalar sof qur'a tashlash bilan aniqlanadi) o'tkaziladigan musoboqalarga hos bo'lgan tasodifiylik faktorini kamayti-rish istagi musoboqa tashkilotchilarini musoboqa o'yinlarining tobora yangi tizimlarini izlashga majbur etadiki, bu tizimlar, odatda, aralash usullaridan iborat bo'ladi.

Hilma-hil xalqaro turnirlarda, jumladan jahon birinchiligi va olimpiada o'yinlarining final qismida keng qo'llanilgan o'yin tizimlari shu tariqa paydo bo'lgan.

Bu tizimga binoan musoboqada qatnashuvchi jamoalar guruhlariga bo'linadi. Masalan, musoboqada qatnashuvchi jamoalar soni 16 ta bo'lganda, ular har bir guruhda to'rtadan jamoa bo'lgan to'rt guruhga bo'lib yuboriladi. Guruhdagi o'yinlar davrali tizim bo'yicha bir yoki ikki davrada o'tkaziladi. Jamoalarni qur'a tashlash bilan guruhlariga bo'lishni turli sharoitlarni hisobga olib o'tkazish mumkin. Bu sharoitlar oldindan Musoboqa nizomida ko'rsatib o'tiladi (jamoalarning xududga mansublik printsiplari, kuchli jamoalarni oldindan klassifikatsiyalash asosida turli guruhlariga bo'lib yuborish va hokazo). Jamoalar qandaydir bir joyda yig'ilganda emas, balki turli guruhlar va xatto guruhga kiruvchi jamoalar

xudud jixatidan turli joylarda joylashtirilganda ham musoboqalarni bu tizimi bilan o'tkazish mumkin. Guruhda birinchi yoki ikkinchi o'rinni egallagan jamoalar keningi musoboqalarga ishtirok etishga yo'l qo'yiladi. Bu musoboqalar mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketish bilan o'ynaladigan tizim bo'yicha o'tkaziladi, bunda birinchi ikki tur o'yinlarida bir guruhdagi jamoalar bir-birlari bilan uchrashmasliklari kerak, chunki ular dastlab o'zaro o'yin o'tkazganlar.

Qo'yidagi musoboqa o'tkazishning shunday sxemasi keltiriladi, bu sxema musoboqaning birinchi qismida ham, shuning bilan birga ikkinchi qismida ham jamoalarning qur'a tashlashidan oldin tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan musoboqa tizimining afzalliga ravshan: bunda musoboqaning birinchi qismida mumkin bo'lgan dasodiflar iloji boricha yuqotiladi va musoboqalar jamoalar soni anchagina ko'p bo'lganda ham nisbatan qisqa muddat ichida o'tkaziladi.

Ma'lumki, mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketish tizimi bo'yicha o'ynaladigan o'yinlarda yoki aralash tizimda o'tkazilayotgan musoboqada, garchi o'yin asosiy va qo'shimcha vaqtda durang bilan tugallansa ham, bir o'yinda yohut bir necha o'yindan keyingi musoboqalarda qatnashish uchun g'olibni aniqlash zarur, albatta. Buni aniqlashning birnecha usuli bor. Ulardan birining, hozirgi vaqtda eng keng tarqalganining mohiyati shundan iboratki, jamoalar o'zaro ikki marta: o'z maydonida shuningdek raqib maydonida

uchrashadilar (bunda o'tkazilgan har bir o'yin uchun ochko beriladi). Ochkolar soni teng bo'lgan taqdirda kiritilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar nisbati e'tiborga olinadi, shu bilan birga raqib maydonda kiritilgan bir to'p ikkitaga hisoblanadi.

O'yinning oxiriga kelib (mazkur holda ikkinchi o'yinining ohiriga kelib) ochkolar va kiritilgan hamda o'tkazib yuborilgan to'plar nisbati teng bo'lib qolsa (to'plar nisbati nolga teng), g'olibni aniqlash uchun qo'shimcha 30 daqiqa vaqt beriladi. Agar qo'shimcha vaqtda ham jamoalardan hech biri g'alabaga erishmasa g'olib jamoa 11 metrlik to'p tepish bilan aniqlanadi. Bu to'plarni har ikki jamoa o'yinchilari, o'yin tugashi bilanoq darvozabon qo'riqlab turgan darvozaga 11 metrlik to'p tepiladigan belgidan navbatma – navbat tepadilar.

## **II-BOB. FUTBOL MUSOBAQALARIGA TAYYORGARLIK**

### **2.1 Futbol musobaqalarning umumiy qoidalari.**

*Futbol musoboqalaridagi o'yinchilar soni:* - Futbol matchining xar qaysisida darvozabonlarni qo'shgan holda o'yinchilar soni 11 tadan oshmagan ikki jamoa ishtirokida o'tkaziladi. Agar jamoalarda o'yinchilar soni 7 ta kam bo'lsa, match boshlanmasligi mumkin.

*Rasmiy futbol musobaqalariga foydalaniladigan to'plar:* - Futbol musobaqalari qoidalarida ko'rsatilgan texnik talablarga javob beradigan to'plargagina ruxsat beriladi.

FIFA tomonidan o'tkaziladigan musobaqalarida quyidagi 3 markirovka-dan birortasiga ega bo'lgan to'plardagina foydalanishga ruxsat beriladi.

Rasmiy logotip “FIFA APPROVED” ( FIFA maqullaydi )

Rasmiy logotip “ FIFA INSPECTED” (FIFA nazorat qilgan )

“INTERNATIONAL MATCH – BALL STANDARD”

Ushbu to'plar xalqaro standartga mos keladigan to'plar sirasiga kiradi.

To'pning bunday markirovkasi uning rasmiy tekshiruvdan o'tganini ko'rsatadi va tekshiruv natijasiga kura to'p muxim texnik talablarga mos ekanligini bildiradi. Milliy federatsiyalar musobaqada faqatgina shu uch markirovkaga ega har qanday to'plardan foydalanishni talab qilish mum-kin. Boshqa har qanday matchlardan to'p qoida talablariga mos kelishi kerak.

FIFA musobaqalarida va milliy federatsiyalar tashkil qilgan musoba-qalarda to'plarga hech qanday savdo sotiqqa oid reklamaga ruxsat berilmay-di, quyidagi xolatni xisobga olmaganda ya'ni musobaqa nishoni, musobaqa tashkilotchisi va tasdiqlangan tayyorlovchining savdo markasi. Bunday muhr-larning soni va o'lchami, mustaqil reglamenti bilan cheklanishi mumkin

*Rasmiy musobaqalar:* - FIFA yoki milliy federatsiyalar tomonidan tash-kil qilinadigan har qanday rasmiy musobaqalarda 3 ta gacha o'yinchilarni almashtirishga ruxsat beriladi. Musobaqa nizomida buyurtmaga kiritila-digan zahiradagi o'yinchilar soni 3 dan 7 gacha uzaro kelishilgan bo'lishi kerak, bundan ortiq bo'lishi mumkin emas. Boshqa matchlarda zahira almashti-rilishi mumkin shu shart bilanki, jamoalar almashinadigan o'yinchilarning maksimal sonini o'yin oldidan kelishib oladilar. Hakam bu haqda match boshlanishidan oldin xabardor qilinishi kerak. Agar hakam xabardor qilinmagan bo'lsa yoki (kelishuv) futbol musoboqa boshlangunga qadar bir bitimga kelinmagan bo'lsa uchtagacha zaxira uyinchisini almashtirishga ruxsat beriladi.

Har qanday futbol musoboqasi boshlanishidan oldin hakamga zaxiradagi o'yinchilar familiyasi ismi taqdim etilishi kerak. Shu usulda familiyasi va ismi qaydnomada ko'rsatilmagan o'yinchilar matchda qatnasha olmaydilar.

***Asosiy o'yinchilarni zaxiradagi bilan almashtirish shartlar***

- Doimo mo'ljallangan almashtirish haqida hakamning xabari bo'lishi kerak.

- Zaxiradagi o'yinchi faqatgina asosiy o'yinchi maydondan chiqqandan so'ng hakam xushtagidan keyin maydonga chiqadi.
- Zaxiradagi o'yinchi o'yin to'xtatilganda faqat o'rta chiziqdan o'yin maydoniga kiradi.
- Zaxiradagi o'yinchi maydonga chiqqandan so'ng almashtirish tugallangan xisoblanadi.
- Shu vaqtdan boshlab zaxiradagi o'yinchi asosiy tarkib o'yinchisi hisoblanadi, almashtirilgan o'yinchi esa asosiy o'yinchi hisoblanmaydi.
- Almashtirilgan o'yinchi matchda boshka ishtirok eta olmaydi.
- Xamma zaxiradagi o'yinchilar o'yinga qatnashish yoki qatnashmasliklaridan qat'iy nazar hakam vakolatlariga bo'ysunadilar.

Darvozabonning almashtirilishi boshqa har qanday o'yinchilar darvoza-bon bilan joylarini almashishlari mumkin faqat shu shart bilanki;

- Hakam bu xaqda almashinishdan oldin xabardor kilingan bo'lishi kerak.
- Almashinish match to'xtaganda amalga oshiriladi.

### ***Futbol o'yinida qoida buzilishi va unga ko'riladigan jazo.***

*Agar zaxiradagi o'yinchi hakam ruxsatisiz maydonga chiqsa:*

- O'yin to'xtatiladi;
- Zaxiradagi o'yinchi sariq kartochka kursatilish bilan ogoxlantirish oladi va uning maydondan chiqishi so'raladi;
- O'yin to'xtatilganda to'p qaerda bo'lsa o'sha joydan, « baxsli to'p » yordamida o'yin yangilanadi.

*Agar o'yinchi hakam ruxsatisiz darvozabon bilan joy almasha:*

- o'yin davom etadi;
- to'p keyingi marta o'yindan chiqqanda qoidani buzgan o'yinchilar sariq kartochka ko'rsatishi bilan ogoxlantirish oladilar.

Boshqa har qanday holatlarda qoidaning buzilishida:

- Shunga muvofiq o'yinchilar sariq kartochka ko'rsatish bilan ogoxlantirish oladilar.

### ***O'yinni qaytadan boshlash***

*Agar o'yin hakam tomonidan ogohlantirish berish uchun to'xtatilsa;*

- O'yin raqib jamoa o'yinchisi tomonidan o'yin to'xtatilganda to'p qaerda bo'lsa shu joydan erkin zarba bilan o'yin yangilanadi.

### ***Asosiy tarkibdagi va zaxiradagi, chiqarib yuborilgan o'yinchilar***

- boshlang'ich zarbadan oldin chiqarib yuborilgan o'yinchi, faqatgina ro'yxatdagi zahira o'yinchilardan birortasi bilan almashtirilishi mumkin.

- Match protokolida boshlang'ich zarbadan oldin yoki o'yin boshlangandan so'ng chiqarib yuborilgan zahiradagi o'yinchini almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

### ***Futbolchilarning epikirovkasi***

*Xavfsizlik* - o'yinchi o'z xayotiga yoki boshqa o'yinchi xayotiga xavf soluvchi biror narsa taqmasligi yoki kiyimasligi shart.

*Epikirovka* - o'yinchilarning majburiy ekipirovka elementlari qo'yida-gilar xisoblanadi: ko'ylak yoki futbolka; kalta ishton ( agar kalta ishton tagidan ichki kiyim kiyiladigan bo'lsa, ichki kiyim rangi kalta ishton rangidan) bo'lishi kerak; getralar; oyoq qalqoni; oyoq kiyim.

*Hitlar* - To'lik getra bilan yopiladi;

- To'g'ri keladigan ( mos keladigan ) materialdan ( rezina, plastik yoki shunga uxshash) tayyorlanadi;

- Etarli darajada himoya bilan ta'minlaydi.

*Darvozabonlar* - darvozabonlar kiyimining rangi boshqa o'z jamoasi, raqib jamoa o'yinchilari hakam va hakamning yordamchilari kiyimi rangidan farq qilishi kerak.

### ***Qoida buzilishi va jazo***

*Ushbu qoidalarni buzilishida futbolchilar qo'yidagicha jazolaniladi;*

- O'yinni to'xtatishning xojati yo'q.

- Hakam o'yinchining o'z ekipirovkasini tartibga keltirishi uchun maydondan chiqishini so'raydi. (maslaxat beradi)

- O'yinchi to'p o'yindan chiqqan vaqtda maydonni tashlab chiqadi; agar shu paytgacha u o'z ekipirovkasni tartibga keltir-magan bo'lsa.

- Hakam talabi bilan o'z ekipirovkasini tartibga keltirish uchun maydonni tashlab chiqqan har qanday o'yinchi, hakam ruxsatisiz yana maydonga qaytishi mumkin emas.

- O'yinchining yana maydonga chiqishiga ruxsat berishdan oldin, hakam uning ekipirovkasini tekshiradi.

- O'yinchi yana maydonga chiqishi mumkin, qachonki: to'p o'yindan chiqsa. Shu qoidani buzganligi sababli maydondan chiqishi so'ralgan o'yinchi hakam ruxsatisiz maydonga chiqsa sariq kartochka ko'rsatish bilan ogohlantiriladi.

*O'yinni qaytadan boshlash* - Agar hakam ogohlantirish berish uchun o'yinni to'xtatsa: O'yin qarshi jamoa o'yinchisi tomonidan hakam o'yinni to'xtatgan vaqtda to'p qaerda bo'lsa, shu joydan erkin to'p tepish bilan qaytadan boshlanadi.

*Uchrashuv hakamlarining vakolati* - Har qanday match hamma vakolatga ega bulgan hakam tomonidan nazorat qilinadi va o'yin qoidasiga rioya qilinishini ta'minlaydi.

## **2.2 Futbol hakamining huquqi va majburiyatlari.**

- o'yin qoidasiga rioya qilinishini ta'minlaydi.
- matchning borishini o'z yordamchilari bilan nazorat qiladi.
- foydalaniladigan har kandy tupni 2- qoida talablariga mos kelishini ta'minlaydi.
- o'yinchilar kiyimi 4- qoida talablariga mos kelishini ta'minlaydi.
- o'yin xronometrajini va matchni yozib boradi.
- u o'z ixtiyoriga ko'ra o'yinni to'xtatishi vaqtinchalik to'xtatishi yoki har qanday qoida buzilishida o'yinni umuman to'xtatib qo'yishi mumkin.
- to'xtatishi, vaqtinchalik to'xtatishi yoki har qanday chetdan bo'lgan aralashuvga matchni umuman to'xtatib qo'yish mumkin.
- matchni to'xtatadi, agar uning fikricha o'yinchi jiddiy jaroxat olgan va o'yinchini maydondan olib chiqilishini ta'minlaydi.
- agar uni fikricha o'yinchi unchalik axamiyatga ega bo'lmagan jaroxat olgan bo'lsa to'p o'yindan chiqmaguncha o'yinni davom ettirishiga ruxsat berishi mumkin.
- o'yinchidan qon oqayotgan bo'lsa, uning maydondan chiqishini ta'minlaydi. Hakam qon oqishining to'xtaganiga ishonch xosil qilib, signal berganidan so'ng o'yinchi maydonga qaytishi mumkin.
- qachonki o'yinchi birdaniga bir nechta qoida buzilishiga yo'l qo'ysa, uni muximroq ( og'irroq ) bo'lgan qoida buzilishi uchun jazolaydi.
- ogoxlantirishi yoki chiqarib yuborish bilan jazolanadigan qoida buzilishlariga yo'l qo'ygan o'yinchilarga nisbatan intizom choralarini qabul qiladi. U bunday choralarni tez qabul qilishga majbur emas, lekin to'p o'yindan chiqqan zaxotiy oq qabul qilishi keark.
- o'zlarini tarbiyali, madaniyatli tutmagan jamoa rasmiy kishilarga nisbatan chora qabul qiladi va o'z ixtiyoriga ko'ra maydondan (texnik zonadan) chiqarib yuborishi mumkin.
- hakam o'zi ko'rmay qolgan xolatlar bo'yicha o'z yordamchilari tavsiyasiga asoslanib xarakat qiladi.

- begona shaxslar maydonda bo'lmashliklarini ta'minlaydi.
- match vaqtinchalik tuxtatilgandan keyin uni yangilaydi.
- match davomida o'yinchilarga yoki jamoaning rasmiy shaxslariga nisbatan qo'llanilgan intizom choralari va har xil matchdan oldin, match davomida yoki matchdan so'ng yuz bergan xolatlar bo'yicha tegishli tashkilotga bildirishnoma beradi.

O'yinga bog'liq voqealar bo'yicha hakam qarori qat'iy xisoblanadi. Hakam o'z qarorini faqat shunday xolatlarda o'zgartirishi mumkin, agar u qarorini xato ekanligini yoki yordamchilari tavsiyasi bilan tushunib etsa, lekin shu shart bilan-ki u hali o'yinni yangilamagan bo'lsa.

### ***Bosh hakam yordamchilari va ularning majburiyatlari***

Ikkita hakam yordamchisi tayinlanadi va ularning vazifasiga ( hakam qaroriga bog'liq ) signal (ishora) berish kiradi:

- qachonki to'p maydon chizig'idan tashqariga to'liq chiqsa.
- qaysi jamoa burchak to'pi, darvozadan zarba, to'p tashlash xuquqiga ega.
- qachon o'yinchi o'yindan tashqari xolatda bo'lganligi uchun jazolanadi.
- qachonki o'yinchi almashtirish to'g'risida iltimos bulsa.
- hakam ko'rish maydonidan tashqarisida yuz bergan intizomsiz xulk yoki boshqa har qanday xolatlar bo'yicha.

- qachonki qoida buzilishi sodir etilganda bosh hakamdan ko'ra shu joyga hakam yordamchilari yaqin bo'lgan xolatlarda ( qisman jarima maydonida yuz bergan qoida buzilishlari ham kiradi.)

- shunday hollarda ya'ni qachonki 11 metr jarima to'pi bajarilayotganda darvozabon to'pga zarba berilishidan oldin joyidan oldinga siljisa, to'p esa chiziqni kesib o'tsa.

Yordamchilar hakamga matchni o'yin qoidasiga mos o'tkazilishiga yordam beradilar. Ular 9,15m masofasiga rioya qilishiga yordam berish uchun maydon doirasiga kirish mumkin .



Hakam o'z yordamchisini asoslanmagan aralashuv yoki qupol muomala uchun holatlarida vazifasidan ozod qiladi va tegishli tashkilotga bildirishnoma beradi.

*O'yin vaqti* - O'yin 45 minutdan 2 taym davom etadi (agar hakam va ikki jamoa vakillari boshqa variantni kelishmagan bo'lsa). Har qanday o'yin vaqtini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuvga (masalan yorug'likni etishmasligi sabab-li har qaysi taymning 40 minutgacha qisqartirilishi) o'yin boshlangunga qadar erishilgan bo'lishi kerak va bu holat musobaka talablariga javob berishi kerak.

*Taymlar oralig'idagi tanaffus* - O'yinchilar 2 taym oralig'ida tanaffus olishlariga xaqlari bor. Taym oralig'idagi tanafus 15 minutdan oshmasligi kerak. Musobaqa tartibida taymlar oralig'idagi tanafus vaqti ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Taymlar orasidagi tanaffusning davomiyligi faqat hakamning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

*Qushib berilgan vaqt* - Quydagi holatlarga ketgan vaqt ikki taymning har qaysisiga qo'shib beriladi.

- o'yinchilarni almashtirishga.
- o'yinchining jaroxatini jiddiyligini aniqlashga.
- jaroxatlangan o'yinchilarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun ularni maydon tashqarisiga olib chiqishga.
- qasddan o'yin vaqtini chuzish
- boshqa har qanday xolatlarda. Qo'shib berilgan vaqtning davomiyligini faqat hakam aniqlaydi.

*11- metrlik to'p tepish qoidasi* - Har qaysi ikki taymning asosiy vaqtning oxirgi daqiqasida yoki qo'shib berilgan vaqtning oxirgi daqiqasida belgilangan 11 metrlik jarima to'pi uchun aloxida vaqt ajratiladi.

*Oxirigacha o'ynalmagan match* - Agar musobaqa nizomida boshqacha holatlar bo'lmasa oxirigacha o'ynalmagan match qayta o'ynaladi.

*O'yin boshlanishi va yangilanishi* - Match boshlanishidan oldin qur'a tashlash o'tkaziladi va jamoalardan biri darvozani tanlash huquqini oladi. Qarshi jamoa matchda boshlang'ich zarbani bajaradi. Qur'a tashlash tufayli darvozani tanlagan

jamoalar darvoza almashadilar. Matchni ikkinchi taymida jamoalar darvoza almashadilar.

*Boshlang'ich zarba* - Boshlang'ich zarba bu o'yinni boshlash yoki o'yinni yangilash uchun qo'llaniladigan usuldir: match boshida; urilgan goldan so'ng; ikkinchi taym boshida.

*Boshlang'ich zarbani bajarish holatlari* - O'yin boshlangunga qadar barcha o'yinchilar o'z maydonida bo'lalari. Boshlang'ich zarbani bajarish xuquqini qo'lga kiritgan jamoa o'yinchilari to'p o'yinga kiritilmaguncha to'pdan 9,15m masofa uzoqlikda turadilar. To'p harakatsiz xolatda maydon markazida bo'lganda hakam signal beradi. To'pga zarba berilib to'p oldinga xarakatlangandan so'ng to'p o'yinda hisoblanadi. Boshlang'ich zarbani bajargan o'yinchi to'p boshqa o'yinchiga tegmaguncha ikkinchi marta to'pga tegishga xaqqi yo'k. Jamoalardan biri gol urgandan so'ng boshlang'ich zarba boshqa jamoa o'yinchisi tomonidan bajariladi. Agar boshlang'ich zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa bir o'yinchi tegmasidan oldin ikkinchi marta tegsa, qoida buzilgan joydan raqib jamoa o'yinchisiga erkin to'p tepish xuquqi beriladi. Musoboqalardagi har qanday boshlang'ich zarbani bajarish tartibi buzilganda, hamisha boshlang'ich zarbani amalga oshirish qaytariladi.

*«Bahsli to'p»* - to'p o'yinda bo'lgan vaqtda o'yin qoidasida ko'zda tutilmagan holat buyicha vaqtincha tuxtatilgandan sung o'yinni yangilash usulidir.

Hakam o'yinni to'xtatganda to'p qaerda bo'lsa o'sha joydan to'pni tashlab beradi. To'p erga tegishi bilan o'yin davom etiriladi. Agar o'yinchi to'p erga tegmasidan oldin tegsa, to'p erga tekkandan so'ng maydon tashqarisiga chiqib ketsa va bunda hech qaysi o'yinchi to'pga tegmagan bo'lsa qaytadan bajariladi.

Darvoza maydoni ichida vaqtinchalik tuxtatishdan sung o'yinni yangilash uchun qo'llaniladigan «bahsli to'p» darvoza chizig'iga parallel holatda darvoza maydoni chizig'ida o'yin to'xtatilgan vaqtda to'p qaerda bo'lgan bo'lsa shu joy yaqinidagi nuqtadan o'ynaladi.

*To'p o'yinda va o'yindan tashqarida* - To'p o'yindan tashqarida bo'lsa o'yindan chiqqan xisoblanadi. agar: to'p erdan yoki havo orqali darvoza chizig'idan yoki yon chiziqdan tuliq kesib o'tsa, o'yin hakam tomonidan to'xtatiladi.

*To'p o'yinda* - Agar to'p darvoza ustuniga, tusiniga yoki burchakdagi bayroqqa tegib maydonga qaytadigan bo'lsa, shuning bilan birga to'p maydonda turgan hakamga yoki hakam yordamchisiga tegib yana maydonga qaytsa ham o'yinda xisoblanib o'yinni davom ettirishga ruxsat beriladi.

*Natijani aniqlash - Gol-* agar to'p ikki ustun oralig'i va tusin ostida darvoza chizig'idan to'liq o'tsa va bunda gol urgan jamoa o'yin qoidasini buzmagani bo'lsa, darvoza-ga to'p urilgan xisoblanadi.

*G'olib jamoa-* O'yin davomida eng ko'p to'p urgan jamoa g'olib bo'ladi. Agar ikkala jamoada to'plar nisbati teng bo'lsa yoki bitta ham to'p urilmagan bo'lsa bunday o'yin natijasi durang bo'ladi.

*Musobaqa reglamenti-* musobaqa tartibida agar match durang natija bilan tugasa qushimcha vaqt tayinlash yoki xalqaro yig'in tomonidan tasdiqlangan match g'olibini aniqlash tartibi to'g'risidagi vaziyat ko'zda tutilishi mumkin.

*O'yindan tashqari xolat* - O'yinchining o'yindan tashqari xolatda bo'lishi o'zidan o'zi qoida bo'zishi bo'lib hisoblanmaydi. O'yinchi o'yindan tashqari xolatda bo'ladi agar:

- To'p va raqibining oxirgi o'yinchisiga ko'ra raqibning darvozasiga yaqin bulsa.

***O'yinchi o'yindan tashqari xolatda bo'lmaydi agar:***

- U maydonning o'ziga tegishli qismida bo'lsa.
- U raqib jamoaning oxirgi o'yinchisi bilan bir chiziqda bo'lsa yoki
- U raqib jamoasining oxirgi ikki o'yinchisi bilan bir chiziqda bo'lsa.

*Qoida buzilishi va jazo* - Uyindan tashqari holatda turgan o'yinchi faqat shunday hollarda jazo-lanishi mumkin, agar to'pga tegish vaqtida yoki biror jamoadoshi to'pga zarba berayotgan vaqtda, u hakamning fikricha o'yin faoliyatiga faol ishtirok etayotgan bulsa, aniqrog'i: o'yinga aralashsa yoki raqibining o'ynashiga xalaqit bersa, o'zining joylashgan vaziyatiga ko'ra ustunlikka ega bo'lsa.

*Qoida buzilmaydi* - Agar o'yinchi to'g'ridan to'g'ri to'pni qabul qilsa o'yindan tashqari holat xisoblanmaydi: darvoza maydoni chizig'idan zarbadan, yon chiziqdan to'p o'yinga kiritilganda yoki burchak to'pi tepilganda.

*Qoida buzilishi va jazo* - o'yindan tashqari xolat qoidasi buzilganda hakam erkin to'p tayinlaydi. Qoida buzilgan joydan to'p o'yinga kiritiladi.

### ***Qoida buzilishi va intizomsiz o'yinchilar xulqi.***

Qoidaning buzilishi, ta'qiqlangan usullarning qo'llanishi, tartibsiz o'yinchilar xulqi o'yin jarayonida hakam tomonidan quyidagicha jazolanadi.

*Jarima to'pi* - O'yinchi quyidagi 6 xolatdan birortasini amalga oshirsa va bunda hakam o'yinchining harakatini extiyotsizlik yoki o'ta jismoniy zo'ravonlik deb baholasa jarima to'pi tepish xuquqi raqib jamoaga beriladi :

- raqibga oyoq bilan zarba berish yoki zarba berishga harakat qilinsa;
- chalib yuborish yoki chalib yuborishga harakat qilsa;
- raqib ustiga sakrasa;
- raqibga xujum qilsa;
- raqibga qo'l bilan zarba berish yoki zarba berishga urinsa;
- raqibni itarsa.

Jarima to'pini tepish xuquqi raqib jamoaga ham berilishi mumkin agar o'yinchi quyidagi 4 ta qoida buzilishiga yo'l qo'ysa:

- to'pni olib qo'yishda, to'pga etib unga tegmasidan oldin raqibga tegsa;
- raqibni ushlab qolsa;
- raqibga tupursa;
- qasddan qo'l bilan o'ynashsa (o'z jarima maydonida turgan darvozaabondan tashqari ). jarima to'pi qoida buzilgan joydan bajariladi.

*11 metrlik jarima to'pi* - 11- metrlik jarima to'pi yuqorida ko'rsatilgan 10 ta qoida buzilishi-ning har qaysisida tayinlanadi. Agar bu xolatlar o'yinchi tomonidan

o'z darvozasi jarima maydonida sodir etilsa, bunda to'pning qaerda bo'lishi xisobga olinmaydi, shu shart bilanki to'p o'yinda bo'lishi kerak.

*Erkin to'p tepish* - Erkin to'p tepish xuquqi raqib jamoaga beriladi agar darvozabon o'z jarima maydonida turib quyidagi 5 ta qoidadan birortasini buzsa:

- to'pni tashlashdan oldin, qo'lida 6 sekunddan ortiq to'pni ushlab tursa;
- to'p tashlangandan so'ng, boshqa o'yinchi tegmasidan uni qo'l bilan ushlasa;
- o'z jamoadoshi tomonidan ataylab oshirilgan to'pga qo'li bilan tegsa;
- o'z jamoadoshi tomonidan yon chiziqdan tashlangan to'pni qabul qilishda to'g'ridan to'g'ri qo'li bilan tegsa;

Shunday xolatlarda erkin to'p tayinlanadi, agar o'yinchi hakam fikricha:

- havfli o'ynasa.
- raqibning harakat qilishiga yo'l qo'ymasa.
- darvozabonning to'pni tashlashiga xalaqit qilsa.

Qoidada ko'rsatib o'tilmagan, boshqa har qanday qoida buzilsa, o'yin to'xtalib o'yinchiga ogoxlantirish beriladi yoki maydondan chiqarib yuboriladi. Erkin to'p qaerda qoida buzilgan bo'lsa o'sha joydan bajariladi.

### ***Ogoxlantirish bilan jazolanadigan qoida buzishlar.***

O'yinchi sariq kartochka bilan quyidagi etti qoidaning birontasini buzsa ogoxlantiriladi.

1. Sportchiga xos bo'lmagan xatti harakatlar.
2. Hakam qaroriga namoyishkorona norozilik bildirish(so'z ishora bilan)
3. O'yin qoidasini muntazam buzish.
4. O'yinni yangidan boshlashni cho'zish.
5. O'yinni burchakdan, jarima yoki erkin to'p bilan yangidan boshlashda talab qilingan masofaga rioya qilmasa.
6. Maydonga hakam ruxsatisiz chiqish yoki qaytish.
7. O'zboshimchalik bilan hakam ruxsatisiz maydondan ketish.

### ***O'yindan chetlatish bilan jazolanadigan qoida buzishlar.***

O'yinchi qizil kartochka ko'rsatish bilan quyidagi etti qoidaning birontasini buzsa o'yindan chetlatiladi:

1. O'yin qoidasining jiddiy buzsa;
2. Zo'ravonlik, qupollik xatti harakatlari qilsa;
3. Raqibiga yoki boshqa shaxsga tupirsa;
4. Ataylab qo'l bilan o'ynab, raqibning gol urishiga xalaqit qilish yoki aniq gol urishi imkoniyatidan maxrum qilsa (bu o'z jarima maydonida turgan darvozabonga tegishli emas).
5. Erkin to'p, jarima yoki 11 metrlik zarba bilan jazolanidigan qoida buzish bilan darvozaga harakat qilayotgan raqibni aniq gol urish imkoniyatidan mahrum qilsa;
6. O'yinchilarni haqoratli so'z yoki odob ahloqqa to'g'ri kelmaydigan ishoralar qilsa;
7. Bir match davomida 2 ta o'gohlantirish olsa.

Maydondan chiqarilib yuborilgan o'yinchi maydon chegarasiga yaqin joylar va texnik zonalardan ham chiqib ketish kerak. Qizil yoki sariq kartochka faqat o'yinchiga, zaxiradagi o'yinchiga yoki almashtirilgan o'yinchiga ko'rsatilishi mumkin.

O'yinchining raqibga, sherigiga, hakamga, hakam yordamchisiga yoki boshqa har qanday shaxsga nisbatan uyin maydonida yoki maydon tashqarisida o'gohlantirishga yoki chiqarib yuborilishiga olib keladigan qoida buzishi, yo'l qo'ygan hatti harakatlariga munosib jazolanadi. Agar darvozabon qo'lining har qanday qismi to'pga tegsa u to'pni nazorat qilayotgan hisoblanadi. Darvozabon to'pni nazorat qilishi deganda ataylab to'pni egallab olishi tushuniladi. Agar darvozabon to'pni egallashda qo'lidan chiqarib yuborsa, maydondagi o'yinchilar to'p bilan o'ynashlari mumkin. 12- qoidaga ko'ra o'yinchi to'pni o'z darvozaboniga kallasi, ko'kragi yoki tizzasini bilan berishi mumkin. Lekin o'yinchi hakam fikricha ataylab ustalik bilan xiyla ishlatib qoidani aylanib o'tmokchi bo'lsa (to'p o'yinda bo'lgan vaqtida) bu sportga xos bulmagan harakat hisoblanadi va

o'yinchi sariq kartochka ko'rsa-tish bilan ogoxlantirish oladi va raqib jamoa qoida buzilgan joydan erkin to'p tepish xuquqini qo'lga kiritadi. O'yinchi erkin yoki jarima zarbasini bajarayotganda ataylab ustalik bilan xiyla ishlatib qoidani aylanib o'tmokchi bo'lsa sportga xos bo'lmagan harakati uchun bunda ular sariq kartochka ko'rsatish bilan ogoxlantirish oladi, zarba qaytariladi. To'pni orqadan olib qo'yishda raqibning xavfsizligiga taxdid solinishi, jiddiy qoida buzilishi sifatida jazolanishi kerak. Maydonda hakamni aldash uchun ishlatilgan har qanday mug'ambirlik ayyorlik sportchiga xos bo'lmagan hatti harakat sifatida jazolanadi.

*Jarima va erkin zarbalar* - Zarbalar jarima yoki erkin zarbaga bo'linadi. Jarima zarbasidagi kabi erkin zarbada ham to'p zarba bajarilayotganda harakatsiz holatda bo'lib, zarbani bajarayotgan o'yinchi esa to'p boshqa o'yinchiga tegmaguncha ikkinchi marta to'pga tegishga haqqi yo'q.

### ***Jarima zarbasi.***

- agar to'p jarima zarbasidan so'ng to'g'ridan to'g'ri, qarama qarshi jamoa darvozasiga tushsa, gol hisoblanadi.

- agar to'p jarima zarbasidan so'ng to'g'ridan-to'g'ri o'z darvozasiga tushsa qarama-qarshi jamoa burchak to'pini tepishni qo'lga kiritadilar.

*Erkin zarba* - Hakam qo'lini boshi tepasiga ko'targan xolda erkin zarba haqida signal beradi. U qo'lini shu holatda zarba bajarilib to'p biron bir o'yinchiga tegmaguncha yoki o'yindan chiqmaguncha ushlab turadi.

*To'pning darvozaga tushishi* - To'p faqat xisoblanishi mumkin, agar zarbadan so'ng va darvozaga tushishdan oldin boshqa o'yinchiga tegsa.

- agar erkin zarbadan to'p to'g'ri qarama-qarshi jamoa darvozasiga tushsa, darvozadan zarba tayinlanadi.

- agar erkin zarbadan to'p to'g'ridan - to'g'ri o'z darvozasiga tushsa qarshi jamoa burchak zarbasini bajarish xuquqini oladi.

*Jarima va erkin zarba bajarilish joyi* - Himoyalalanuvchi jamoa tomonidan bajariladigan jarima yoki erkin zarba.

- raqib jamoa o'yinchilari to'pdan kamida 9,15m masofada joylashadi.

-to'p o'yinga kirmaguncha raqib jamoaning hamma o'yinchilari jarima maydoni tashqarisida turadi.

- qachonki to'p jarima maydonidan tashqariga chiqsa, to'p o'yinda xisoblanadi.

- darvoza maydoni doirasida bajarilishi kerak bulgan jarima yoki erkin zarba uning har qaysi nuqtasida bajarilishi mumkin.

### ***Hujumdagi jamoa tomonidan bajariladigan erkin zarba.***

- raqib jamoaning hamma o'yinchilari to'pdan kamida 9,15m (10 yard) masofada joylashadi.

- to'pga zarba berilgach u harakatda bo'lsa to'p o'yinda xisoblanadi.

- darvoza maydonida bajarish uchun tayinlangan erkin zarba, darvoza chizig'iga parallel bo'lgan darvoza maydoni chizig'ida qoida buzilgan joy yaqinida amalga oshiriladi.

### ***Jarima maydoni tashqarisida bajariladigan jarima yoki erkin zarba.***

- raqib jamoaning hamma o'yinchilari to'p o'yinga kirmaguncha to'pdan 9,15 m masofa uzoqlikda joylashadi.

- to'pga zarba berilgach u harakatga kelsa to'p o'yinda hisoblanadi.

jarima yoki erkin zarba qaerda qoida buzilgan bo'lsa o'sha joydan bajariladi.

### ***Qoida buzilishi va jazo.***

Agar jarima yoki erkin zarba bajarilayotganda raqiblardan biri to'pga ruxsat berilgan masofadan ko'ra yaqinroqda bo'lsa.

- zarba qaytariladi.

Ximoyalananayotgan jamoaning o'z jarima maydonida bajarayotgan jarima yoki erkin zarbasidan so'ng to'p to'g'ridan to'g'ri o'yinga kirmasa.

- zarba qaytariladi.



Maydon o'yinchisi tomonidan bajariladigan jarima yoki erkin zarba .

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa biror o'yinchi tegmasdan oldin ikkinchi marta to'pga tegsa: (qo'li bg'n emas).

- qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish huquqini qo'lga kiritadi.

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegmasidan oldin ataylab to'pni qo'li bilan o'ynasa .

- qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish huquqini qo'lga kiritadi.

- agar qoida buzilishi zarbani bajargan o'yinchi jamoasi jarima maydoni doirasida yuz bersa, 11m zarba tayinlanadi .

Darvozabon tomonidan bajariladigan jarima yoki erkin zarba.

- agar, to'p o'yinga kirganidan so'ng darvozabon to'pga boshqa biror o'yinchi tegmasidan oldin (qo'li bilan emas) qaytadan to'pga tegsa.

Agar to'p o'yinga kirganidan so'ng darvozabon to'pga biror o'yinchi tegmasidan oldin ataylab to'pni qo'li bilan o'ynasa .

- qarshi jamoa jarima zarbasini bajarish huquqini oladi, agar qoida buzilishi shu darvozabon jarima maydoni tashqarisida yuz bergan bo'lsa, zarba qoida buzilgan joydan bajariladi .

- qarshi jamoa jarima zarbasini bajarish huquqini oladi, agar qoida buzilishi shu darvozabon jarima maydoni ichida yuz bersa, zarba qoida buzilgan joydan bajariladi .

*11-metrlik zarba* - To'p o'yinda bo'lgan vaqtda o'yinchilar o'z jarima maydoni doirasida jarima to'pi tayinlanadigan 10ta qoidaning birortasini buzsa shu jamoa darvozasiga 11metrlik jarima zarbasi tayinlanadi, 11metrlik jarima zarbasidan kiritilgan gol hisoblanadi. Har qaysi taym tugashida, asosiy yoki qo'shimcha vaqtdan qat'iy 11 metrlik zarba uchun vaqt qo'shib beriladi.

### ***To'p va o'yinchilarning joylashishi.***

To'p 11 metrlik nuqtaga joylashtiriladi va zarbani bajaruvchi o'yinchi kerakli tarzda aniqlanadi. Ximoyalanuvchi jamoa darvozaboni to'pga zarba berilmaguncha darvoza chizig'ida ikki ustun oralig'ida zarbani bajarayotgan o'yinchiga yuzma-yuz turgan holatda qoladi. Zarbani bajarayotgandan boshqa o'yinchilar maydon doirasida, jarima maydonidan tashqarida, 11 metrlik nuqta orqasida, 11 metrlik nuqtadan kamida 9,15 m uzoqlikda turishadi.

### ***Hakam.***

Hakam o'yinchilar yuqoridagidik joylarini egallamaguncha, 11m zarbani bajarish uchun signal bermaydi. O'yinchilar joylarini egallagach 11m zarba bajarish haqida qaror qabul qiladi.

### ***Zarbani bajarish tartibi.***

11 m zarbani bajaruvchi o'yinchi to'pga zarba birib uni to'g'riga yo'naltiradi. To'p biror bir o'yinchiga tegmaguncha u to'pga ikkinchi marta tegmaydi. To'pga zarba berilib u oldinga harakat qilsagina, u o'yinda hisoblanadi. Hakam 11 m zarbani bajarish uchun signal berganda, to'p o'yinga kiringunga qadar zarbani bajaruvchi o'yinchi o'yin qoidasini buzsa: hakam zarbani bajarish uchun imkon beradi. Agar to'p darvozaga kirsa zarba qaytariladi, to'p darvozaga kirmasa zarba qaytarilmaydi. Darvozabon o'yin qoidasini buzsa hakam zarbani bajarish uchun imkon beradi, to'p darvozaga kirsa gol hisoblanadi moboda to'p darvozaga kirmasa zarba qaytariladi. Agar zarbani bajaruvchi o'yinchining jamoadoshi jarima maydonchasiga kirsa, yoki 11 metrlik nuqtadan oldinga o'tsa yoki nuqtaning 9,15 metrlik doira-sida bo'lsa, hakam zarbani bajarish uchun imkon beradi, to'p darvozaga kirsa zarba qaytariladi aksincha to'p darvozaga kirmasa zarba qaytarilmaydi.

Agar to'p darvozabonga, darvoza tusiniga yoki darvoza ustuniga tegib sapchib ketsa va to'pga shu o'yinchi tegsa hakam o'yinni to'xtatadi va erkin zarba bilan yangidan boshlash huquqini qarshi jamoaga beradi. Darvoza-bonning jamoadoshi jarima maydoniga kirsa yoki 11 metrlik nuqtadan oldinga o'tsa yoki nuqtaning

9,15m doirasida bo'lsa unda hakam zarbani bajarish uchun imkon beradi. Agar to'p darvozaga kirsam gol xisoblanadi, kirmasa zarba qaytariladi. Himoyalannuvchi va xujumga o'tuvchi jamoa o'yin-chilari o'yin qoidasini buzsa zarba qaytariladi. 11metrlik zarba bajarilgandan so'ng zarbani bajargan o'yinchi to'p biror o'yinchiga tegmasidan oldin ikkinchi marotaba to'pga tegsa, qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish xuquqini oladi. Zarbani bajaruvchi o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegmasidan oldin qo'li bilan ataylab o'ynasa qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish xuquqini oladi. To'p oldinga harakatlanayotganda unga begona buyum tegsa zarba qaytariladi. To'p darvozabon, ustun yoki darvoza tusinidan sapchib maydonga qaytsa, undan so'ng begona buyum yoki biror shaxs tegsa hakam o'yinni to'xtatadi. To'pga begona buyum yoki biror shaxs tekkan joydan, «baxsli to'p» bilan o'yin yangilanadi.

### ***To'pni tashlash.***

To'pni tashlash o'yinni yangidan boshlash usuli. To'g'ridan to'g'ri to'pni tashlashdan so'ng urilgan gol xisoblanmaydi. To'pni tashlash tayinlanadi.

- Qachonki to'p to'liq yon chiziqni erdan yoki xavodan kesib o'tsa.
- To'p yon chiziqni kesib o'tgan joyda.
- To'pga oxirgi tekkan o'yinchining raqib jamoasiga.

### ***To'pni tashlash xolati.***

To'pni tashlash vaqtida o'yinchi: maydonga yuzi bilan qaragan xolda bo'ladi; tovonning bir qismi yon chiziqda bo'ladi yoki yon chiziqning tashqarisida. To'pni tashlashni ikki qo'llab amalga oshiradi ya'ni to'p bosh orqasidan harakatga keltirib tashlaydi. To'p tashlashni bajargan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegmasidan oldin yana tegishi mumkin emas. To'p maydonga tushishi bilanoq o'yinda xisoblanadi.

### ***To'pni o'yinchi tomonidan tashlanishi:***

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng to'p tashlashni amalga oshirgan o'yinchi to'p boshqa biror o'yinchiga tegmasidan oldin (qo'l bilan emas) yana to'pga tegsa:

- Qarshi jamoaga qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish xuquqi beriladi;

-Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng to'p tashlashni amalga oshirgan o'yinchi to'p boshqa biror o'yinchiga tegmasidan oldin ataylab qo'li bilan o'ynasa, qarshi jamoaga qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish xuquqi beriladi.

-Agar qoida buzilishi to'p tashlashni bajargan o'yinchi jarima maydonida yuz bersa, 11 metrlik zarba tayinlanadi.

### ***To'pni darvozabon tomonidan tashlanishi.***

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng darvozabon to'p boshqa biror o'yinchiga tegmasdan avval yana to'pga tegsa ( qo'l bilan emas ), qarshi jamoaga qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish xuquqi beriladi. Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng darvozabon to'p boshqa biror o'yinchiga tegmasdan oldin ataylab qo'li bilan o'ynasa, qarshi jamoaga jarima zarbasini bajarish xuquqi beriladi, moboda qoida buzilishi darvozabonning jarima maydonidan tashqarisida yuz bersa, bunda zarba qoida buzilgan joyda amalga oshiriladi. Qarshi jamoaga erkin zarba bajarish xuquqi beriladi, agar qoida buzilishi darvozabonning jarima maydoni doirasida yuz bersa, bunda zarba qoida buzilgan joyda amalga oshiriladi. Agar raqib halol bo'lmagan usul bilan to'p tashlashni amalga oshirayotgan o'yinchini diqqatini chalg'itsa yoki halaqit bersa, bunday o'yinchi sportchiga xos bo'lmagan hatti harakati uchun sariq kartochka ko'rsatish bilan ogoxlantirish oladi. Shu qoidaning boshqa har qanday buzilishida: qarshi jamoa o'yinchisi to'p tashlashni amalga oshiradi.

### ***Darvozadan zarba.***

Darvozadan zarba o'yinni yangilash usuli hisoblanadi, Darvozadan zarba tufayli to'g'ridan to'g'ri raqib darvozasiga to'p kirsam gol xisoblanadi. Darvozadan zarba tayinlanadi qachonki: To'p oxirgi marta xujum qilayotgan jamoa o'yinchisiga tegib darvoza chizig'ini erdan yoki xavodan kesib o'tsa, lekin agar bunda 10 – qoidadan kelib chiqib gol urilmagan bo'lsa.

Darvozadan zarbani bajarish tartibi shunday: Zarba ximoyalanuvchi jamoa o'yinchisi tomonidan darvoza maydon doirasining har qanday nuqtasida amalga oshiriladi. Raqiblar to'p o'yinga kirmaguncha jarima maydoni doirasining

tashqarisida turishadi (qoladi). Zarbani bajargan o'yinchi to'p biror bir o'yinchiga tegmasdan oldin, ikkinchi marta to'p bilan o'ynashi mumkin emas. To'p to'g'ridan to'g'ri jarima maydoni doirasidan tashqariga chiqsa to'p o'yinda xisoblanadi. Qoida buzilishi va jazo. Agar darvozadan zarba bajarilgandan so'ng to'p jarima maydoni doirasini tark etmasa (tashqariga chiqmasa). Zarba qaytariladi qachonki darvozadan zarba maydon o'yinchisi tomonidan bajarilsa ( darvozabon tomonidan emas ).

Agar to'p o'yinga kirgandan so'ng zarbani bajargan o'yinchi to'p biror bir o'yinchiga tegmasdan oldin ikkinchi marta to'pga tegsa (qo'l bilan emas): qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish xuquqini oladi.

Agar to'p o'yinga kirganidan so'ng zarbani bajargan o'yinchi to'p biror bir o'yinchiga tegmasdan oldin ataylab qo'li bilan o'ynasa qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish xuquqini oladi. Agar qoida buzilishi zarbani bajargan o'yinchining jarima maydoni doirasida yuz bersa, 11 metrlik zarba tayinlanadi. Darvozadan zarba darvozabon tomonidan bajarilganda, agar to'p o'yinga kirgandan so'ng darvozabon to'p biror bir o'yinchiga tegmasidan oldin ikkinchi marta tegsa (qo'l bilan emas) - qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish xuquqini oladi.

Agar to'p o'yinga kirganidan so'ng darvozabon to'p biror bir o'yinchiga tegmasdan oldin ataylab qo'li bilan o'ynasa;

Agar qoida buzilishi darvozabonning jarima maydoni doirasi tashqarisida yuz bersa qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish xuquqini oladi.

Agar qoida buzilishi darvozabon jarima maydoni doirasida yuz bersa, qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish xuquqini oladi.

Shu qoidaning boshqa har qanday buzilishida zarba qaytariladi.

### ***Burchak to'pi.***

Burchak zarbasi o'yinni yangidan boshlash usulidir. Burchak zarbasi tufayli to'g'ridan to'g'ri urilgan gol xisoblanadi, lekin faqat shu xolatdagi, agar to'p raqib jamoa darvozasiga urilgan bo'lsa.

Burchak to'pi tayinlanadi qachonki: to'p oxirgi marta, ximoyalananayotgan jamoa o'yinchisiga tegib darvoza chizig'ini erdan yoki xavodan kesib o'tsa, lekin agar bunda 10 qoidaga mos ravishda gol urilmagan bo'lsa.

Burchak to'pini bajarish tartibi shunday: to'p burchak bayrog'i yaqinidagi belgilangan qismi (sektor) ichiga o'rnatiladi. Raqiblar to'pdan 9,15 m masofa uzoqlikda joylashadi. To'pga zarbani xujumdagi jamoa o'yinchisi amalga oshiradi. Qachonki to'pga zarba berilib va u harakatda bo'lsa to'p o'yinda xisoblanadi. Zarbani bajargan o'yinchi to'p boshqa o'yinchiga tegmaguncha ikkinchi marta to'pni o'ynashi mumkin emas.

### ***Qoida buzilishi va jazo.***

Burchak zarbasi maydon o'yinchisi tomonidan bajarilsa (darvozabon tomonidan emas). Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegishidan oldin, ikkinchi marta to'pga tegsa (qo'li bilan emas) - qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba berish xuquqini oladi. Agar to'p uyinga kiritilgandan so'ng zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegishidan oldin ataylab qo'li bilan o'ynasa - qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish xuquqini oladi. Agar qoida buzilishi zarbani bajargan o'yinchining jarima maydoni doirasida yuz bersa, 11metrlik zarba tayinlanadi.

### ***Darvozabon tomonidan bajariladigan burchak to'pi.***

Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng darvozabon to'p boshqa o'yinchiga tegmasidan avval ikkinchi marta (qo'li bilan emas) tegsa: qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba bajarish xuquqini oladi. Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng darvozabon to'p boshqa o'yinchiga tegmasdan avval ataylab qo'l bilan o'ynasa- agar qoida buzilishi darvozabonning jarima maydoni doirasining tashqarisida yuz bersa, qarshi jamoa qoida buzilgan joydan jarima zarbasini bajarish xuquqini oladi. Agar qoida buzilishi darvozabonning uzining jarima maydonida yuz bersa, qarshi jamoa qoida buzilgan joydan erkin zarba

bajarish xuquqini oladi. Qoidaning boshqa har qanday buzilishida zarba qaytariladi.

### ***Match g'olibini aniqlash tartibi.***

11 m nuqtadan zarbalarni bajarish va oltin gol – bu musobaqa nizomiga ko'ra match durang natija bilan tugaganda g'olibni aniqlash uchun qo'llanila-digan usuldir: Oltin gol. Tartib - asosiy o'yin vaqti tugagandan so'ng tayinlangan qo'shimcha vaqt davomida birinchi to'p urgan jamoa g'olib deb e'lon qilinadi. Agar to'p urilmasa, unda match g'olibi 11 metrlik nuqtadan bajariladigan zarbalar yordamida aniklanadi. 11 metrlik nuqtadan zarba-larda hakam zarbalar uriladigan darvozani tanlaydi va birinchi zarbani bajaruvchi jamoani aniqlaydigan qur'a tashlashni o'tkazadi. U amalga oshirilgan zarbalarni ro'yxatga oladi (qayd etadi). Kelishilgan quyidagi shartlarga rioya qilish sharti bilan, har ikkala jamoa 5 tadan zarba bajarishadi. Zarbalar jamoalar tomonidan navbati bilan bajariladi. Agar ikki jamoa 5 tadan zarba bajarishdan oldin ulardan biri ko'prok gol ursa ikkinchi jamoa esa 5 ta zarbani ham bajarib bunday natijaga erisha olmaydigan bo'lsa zarbalarni bajarish to'xtatiladi. 5 tadan zarba bajar-gandan so'ng ikki jamoa ham bir xil gollar soniga ega bo'lsa yoki bitta ham gol urmasa, jamoalardan biri bir xil zarbalar miqdorini bajarib, ikkinchisiga qaraganda 1 gol ko'p urmaguncha xuddi shu tartibda zarbalarni bajarish davom etiriladi. 11 m nuqtadagi zarbalarda jarohat olgan va keyingi o'z vazifalarini bajara olmaydigan darvozabon, protokolga kiritilgan zaxiradagi o'yinchi bilan almashtirishi mumkin, lekin shu shart bilanki uning jamoasi musobaqa qoidasida ruxsat berilgan eng ko'p miqdordagi zaxira almashtirishdan foydalanmasligi kerak. Yuqoridagi keltirilgan xolatdan boshqa 11 m nuqtadagi zarbalarni qo'shimcha vaqt qo'shgan holda match oxirida maydonda bo'lgan o'yinchilargina bajarishi mumkin. Hamma zarbalar har xil o'yinchilar tomonidan bajariladi va ikkinchi marta zarbani bajarish xuquqini o'yinchi olishi mumkin faqat shu xuquqga ega bo'lgan hamma o'yinchilar o'z zarbalarini bajarib bo'lganidan so'ng zarbani bajarish xuquqiga ega bo'lgan o'yinchi 11 m nuqtadan zarbani bajarishning har qanday paytida o'z joyini darvozabon bilan almashtirishi

mumkin. 11 m nuqtadan zarbalarni bajarish vaqtida maydonda faqatgina zarba bajarish xuquqi bo'lgan o'yinchilar va match hakamlari bo'lishi mumkin.

Zarbani bajarayotgan o'yinchi va ikki darvozabondan tashqari hamma o'yinchilar markazdagi doira ichida qolishlari kerak. Zarbani bajarayotgan o'yinchi jamoasi darvozaboni, jarima maydoni doirasi tashqarisida darvoza chizig'i va jarima maydonini chegaralovchi chiziqlar kesishgan joyda qoladi..

Qachonki jamoa o'z raqibiga nisbatan ko'prok o'yinchi bilan matchni tugallasa, u raqib bilan tenglashish uchun o'z o'yinchilari sonini qisqarti-rishi va qisqartirilgan o'yinchilar familisi va raqamini hakamga bildirishi kerak. Bunday barcha ma'suliyat jamoa sardoriga yuklatiladi.

### ***Texnik zona.***

Texnik zona xalqaro yig'inning 3 qoidasi (2 qaror) ko'rsatilganidek stadionlarda o'tkaziladigan matchlarda texnik shaxslar va zaxiradagi o'yinchilar joylashadigan qismni bildiradi. Texnik zonalar har xil stadionlarda o'lchami yoki joylashishi bilan farq qilishi mumkin.

Quyidagi qaydlar, fikrlar umumiy qullanma sifatida keltiriladi.

- Texnik zona maydonni har ikkala tomonida zaxiradagi o'yinchilar uchun ajratilgan urindiqdan boshlab yon chiziqqa 1m masofa qolganda tugaydi.

- Ushbu zona chegarasini bildirish uchun markirovkadan foydalanish tavsiya etiladi.

- Texnik zonada bo'lishiga ruxsat berilgan shaxslar, musobaqa qoidasiga ko'ra match boshlanishidan oldin aniqlanadi.

- Faqat bir kishiga bir vaqtda o'yinchilarga taktik ko'rsatmalar berishga ruxsat etiladi va bundan so'ng u darrov joyiga qaytishi kerak.

- Muxim xolatlarni xisobga olmaganda jamoaning murabbiyi va rasmiy kishilari texnik zona doirasida kolishlari kerak.

Masalan: Murabbiy uqalovchi (masajist) yoki murabbiy vrach hakam ruxsati bilan maydonga, jaroxat olgan o'yinchining axvolini baxolashga chiqishi mumkin.

### ***To'rtinchi hakam va uning vazifasi***



Zaxiradagi hakam musobaqa qoidasiga ko'ra hakamlik vazifasini bajarishga tayinlanishi mumkin shu xolatdagi, agar matchning uchta hakamidan birontasi o'z vazifasini davom ettira olmaydigan xolatda bo'lsa.

-Match boshlanishidan oldin uning tashkil etilishiga javobgar idora aniq harakatlar tartibini e'lon qiladi: ya'ni agar hakam o'z vazifasini davom ettiradigan xolatda bo'lmasa: bu vazifani zaxiradagi hakam o'ziga qabul qiladimi yoki hakamning birinchi yordamchisi.

-Zaxira hakami agar hakam talab qilsa har qanday ma'muriy vazifalarni muddatdan oldin, match vaqtida va matchdan keyin bajarishga yordamlashadi.

- U match davomida o'yinchilarni almashtirish xolatiga yordam beradi.

-U zaxiradagi o'yinchilarning o'yin maydoniga chiqishidan oldin ekipirovkasini tekshirishga xaqqi bor. Agar ular ekipirovkasi o'yin qoidasiga mos kelmasa bu xaqida hakamga ma'lum qiladi.

-Zaxiradagi hakam hamma vaqt hakamga yordam beradi. Usignal berish kerak shu xaqdakim, qachonki uyinchini tanishda adashilganligi uchun boshqa o'yinchi ogoxlantirish olsa yoki o'yinchi ikkinchi ogoxlantirishni olib maydondan chiqib ketmasa yoki hakam va uning yordamchilariga kurinmayotgan zuravonlik xolatlariga lekin shunda ham o'yinga bog'liq har qanday xolatlarga qaror qabul qilish xuquqi hakamda qoladi.

Matchdan so'ng zaxiradagi hakam, xakam va hakam yordamchilari ko'rmagan, maydondan tashqarida yuz bergan har qanday nojo'ya harakatlar va shunga o'xshash xolatlar bo'yicha tegishli tashkilotga axbarot berishi kerak.

## X U L O S A

Musoboqalarini doimiy ravishda o'tkazish o'quvchilari sog'ligini mustaxkamlash bilan bir qatorda ularni sportning ushbu ajoyib turiga bo'lgan qiziqishini yanada ham oshiradi. Shu bois ham jismoniy tarbiya mutaxasisi barcha sport turlari qatori o'quv yili boshida futbol musoboqalarini ham yillik musoboqalar taqvimiga kiritishi zarur. Maktablarda jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish tadbirlari, barcha sport turlarini ommoviylashtirish ishlarini hisobga olgan holda futbol musoboqalarni olimpiya tizimida, ya'ni, bir mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish tizimida o'tkazish yaxshi samara beradi. Musoboqalarni aylanma tizimda o'tkazilishi ko'p vaqtni olganligi uchun maktab sharoitida yoki maktablar o'rtasida, shahar, tuman maktablari o'rtasida "Umid nihollari" musoboqalarida keng foydalanilmaydi. Musoboqalarni ushbu tizimidan O'zbekiston chempionatining barcha tabaqalarida keng foydalaniladi (kubok o'yinlaridan tashqari).

Bugungi kunda xotin – qizlar futbolni rivojlantirish borasida ham mamlakatimizda futbol jonkuyarlari tomonidan katta zafarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Musoboqalarni tashkil qilish va o'tkazishga doir qo'yidagi taklif va muloxozalarga amal qilgan jismoniy tarbiya mutaxassislari maktab o'quvchilari o'rtasida futbol musoboqalarini samarali yo'lga qo'ya oladi:

Musoboqa nizomini ishlab chiqib, ishtirokchilarni tanishtirsalar;

Musoboqaning maqsad va vazifalarini to'g'ri belgilab olsalar;

Musoboqaga rahbarlik qilsalar;

Musoboqani o'tkazish kuni, soati va shartlarini belgilab olsalar;

Musoboqani chiqib ketish tizimidan foydalansalar;

Musoboqalashuvchi jamoalarni talabnomalarini ko'rib chiqib uni tasdiqlasalar;

Musoboqa hakamlar kollegiyasini tuzib ishlarini qat'iy tartibda musoboqa qoidalirga asosan olib borsalar;

Norozilik arizalarini halol va adolatli ko'rib chiqib to'g'ri hulosani chiqarsalar;

Musoboqa g'oliblarini faxriy yorliq va sovg'alar bilan taqdirlasalar sportning ushbu futbol turini maktab o'quvchi yoshlari orasida keng ommalashtirgan bo'ladilar.

## **Foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim tug'risida"gi qonuni, 1997 y.
2. "Kadrlar tayerlash Milliy dasturi" 1997 y.
3. Vazirlar Maxkamasining "Jismoniy tarbiya va sport yanada rivojlan-tirish chora – tadbirlari tugrisida"gi Karori 1999 y.
4. Nurimov R.I.,Iseev P. – Futbolchilarni tayerlashda pedagogik nazorat (Pedagogik tavsiyalar) T. 1990
5. Nurimov R.I., Sergeev G.M. – Jismoniy tarbiya institutining pedago-gika fakulteti uchun dastur ( ixtisoslashtirish kursi) T.1995
6. Sergeev G.M., Nurimov R.I. – Futbol buyicha balalar va usmirlar sport maktabi olimpiya urinbosorlari, bolalar va o'smirlar maxsus maktabi, olipiya o'rinbosarlari bilim yurti o'quv-mashq qilish va sport komolo-tiga erishish guruhlari uchun dastur T. 1997 yil.
7. Akramov R.A., Talibdjanov A. – Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash. O'quv qo'llanma 2009 y.

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.qdu.uz](http://www.qdu.uz)

[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

[www.referat.arxiv.uz](http://www.referat.arxiv.uz)